

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

# VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 22-dekabr, №51 (3061)



**RAQOBAT  
SOG'LOM,  
SHIJOAT  
KATTA  
4-5**



**ULAR  
TURKISTON  
BURGUTLARI  
EDI  
8**



**BIZ  
HAQIMIZDA**

@vatanparvar@mail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi


t.me/vatanparvar

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/vatanparvar

uzarmiya.com/c/uzarmiya

IJTIMOYIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MADANIY VA JAMOA QURILISHI HAQIDA QILINADIGAN MA'RUHA VA MAQOLALIK GAZETASI



**YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI  
MAMLAKAT QUDRATI, YUKSAK  
G'URUR VA SADOQAT TIMSOLIDIR!**

www.mv-vatanparvar.uz



# PREZIDENT RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR SOHASIDAGI NATIJALAR VA REJALAR BILAN TANISHDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrif buyurdi.

Raqamli boshqaruv markazida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti o‘tkazildi. Ma’lumki, bu strategiyada mamlakatimizni mintaqaviy “IT-xab”ga aylantirish maqsadi belgilangan. Bu davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, IT ta’limni rivojlantirish kabi ko‘p omillarni talab etadi.

Oxirgi yillarda ushbu yo‘nalishlarda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Axborot texnologiyalari subyektlari uchun yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar natijasida bunday korxonalar va ish o‘rinlari soni, xizmatlar eksporti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 1 ming 600 taga yetgan. Ish o‘rinlari ham qisqa vaqtda 10 baravar ko‘payib, 24 mingdan oshgan. 2017-yilda 600 ming AQSh dollari bo‘lgan eksport hajmi joriy yil yakuni bilan 300 million dollardan oshishi kutilmoqda.

“My.gov.uz” yagona portali orqali bugungi kunda 8 milliondan ortiq aholi va tadbirkor 570 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda.

Ijro intizomi yagona tizimi – “ijro.gov.uz” orqali davlat idoralari va ularning quyi bo‘g‘inlari xodimlari tomonidan 28 millionta hujjat elektron ayriboshlangan.

Prezidentimiz bu tizim rahbarlarning ongi va mas’uliyatini o‘zgartirganini ta’kidlab, hujjatlar integratsiyasi va

sifatini yaxshilash, ijro intizomi nazoratini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

2022-yilda BMTning “Elektron hukumat” reytingida mamlakatimiz 18 pog‘ona yuqorilab, 69-o‘rinni egalladi. 2030-yilga borib, ushbu reytingda birinchi o‘ttiztalikka kirish bo‘yicha yillik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Buning uchun hududlarda IT infratuzilmani va venchur bozorini rivojlantirish, “local to global” tamoyili orqali mahalliy korxonalarini eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalarning ofislarini ochish kabi ko‘plab choralar ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, IT-Park hududida Angliya huquqini joriy etish, rezidentlar uchun soliq imtiyozlarini 2040-yilgacha uzaytirish, umuman, bu sohaga 100 yillik qulaylik yaratish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi.

Davlat rahbari mamlakatimizning axborot texnologiyalari,

turizm, investitsiya salohiyatini mujassamlashtirgan yaxlit imijini yaratish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Taqdimotda sohaga ixtisoslashgan ta’lim to‘g‘risida ham axborot berildi. So‘nggi uch yilda IT o‘quv markazlari soni 300 dan oshdi. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olib, sertifikatga ega bo‘lgan yoshlar soni 1 million 200 ming nafarni tashkil etdi. O‘tgan yildan boshlab xalqaro IT-sertifikatlarga o‘qish xarajatlarini 50 foizgacha qoplab berish yo‘lga qo‘yildi. 215 ming nafar yosh xalqaro onlayn kurslarini bitirib, sertifikat oldi.

Bularni davom ettirgan holda, kelgusi yildan boshlab, har yili 5 ming nafar iqtidorli yoshni saralash, o‘qitish hamda xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash tizimi joriy etiladi. Xorazm viloyatida “Al-Xorazmiy vorislari” loyihasida o‘qitish boshlanadi. Umuman, IT sohasida 300 ming nafar yoshni xalqaro kompaniyalar talabiga mos dasturlar asosida tayyorlash va ish bilan ta’minlash rejalashtirilgan.

Shu yerda kosmik geoaxborot tizimi orqali suv omborlari hamda yer qariidan foydalanish holatlarini monitoring qilish dasturi haqida ma’lumot berildi.

Prezident vazirlikning “UZINFOCOM” Yagona integratori ofisida yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi, mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

– Sizlar hozirgi islohotlarda bizning eng ishongan kuchimiz. Kelajakda sizdek mutaxassislar ehtiyoj yanada oshadi. Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda sun’iy intellekt asosida biometrik identifikatsiya qilish, sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish, elektr ta’minoti billingi bo‘yicha axborot berildi. Davlatimiz rahbari ijtimoiy sohalarni, ayniqsa tibbiyot sohasining raqamli tizimini takomillashtirish, odamlarni rozi qilish zarurligini ta’kidladi.

Prezidentimizga Samarqand viloyati Nurobod tumanida tashkil etilgan “IT Village” haqida so‘zlab berildi. Bu majmua 1–9-sinf o‘quvchilarini axborot texnologiyalari bilan tanishtirish va bunga qiziqirish, ularga ilk ko‘nikmalarni o‘rgatishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari bunday majmualarni barcha hududlarda barpo etish bo‘yicha topshiriq berdi.

## RAQAMLASHTIRISH SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-dekabr kuni tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Zamon talabidan kelib chiqib, mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash, soha va tarmoqlarni raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Joriy yilning o‘zida ta’lim, bank, moliya, bojxona, qishloq xo‘jaligi, geologiya, kadastr kabi sohalarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. 500 dan ziyod yangi IT kompaniya tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib kelgan.

Yil yakuni bilan sohada xizmatlar hajmi 10 trillion so‘m bo‘lishi, eksporti esa 300 million dollardan oshishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich Toshkent, Samarqand, Andijon viloyatlarida yuqori sur’atlarda o‘zdi. Surxondaryo ham ilk bor IT xizmatlar eksportini yo‘lga qo‘yib, 1 million dollardan oshirdi. Hududlarda 20 mingdan ortiq yosh mustaqil shug‘ullanib, xalqaro onlayn platformalar orqali yaratgan mahsulotini chetga sotgan.

Yig‘ilishda soha rivojiga qo‘shimcha sharoitlar yaratilishi belgilandi. Unga ko‘ra:

– IT kompaniyalari hududlardagi bo‘sh turgan binolarga bir yil muddatga bepul joylashtiriladi;

– iqtidorli dasturchilarga bir yil ichida bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan kompyuter va texnikalar beriladi;

– 50 dan ortiq IT mutaxassisni ishli qilgan kompaniyalarning bir yil davomidagi ish haqi xarajatining 15 foizgacha qismi qoplab beriladi; – eksportchi korxonalariga chetdan ekspert jalb qilish, xalqaro konferensiyalarda qatnashish xarajatlarining 50 foizi kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek, IT-Parkni xalqaro miqyosga olib chiqish uchun Germaniya va Saudiya Arabistonida uning shu‘ba korxonalarini ochiladi.

Umuman, shunday yangi imkoniyatlar hisobiga, 2024-yilda IT xizmatlari hajmini 2 barobar oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bunga erishish uchun, avvalo, chet tili va texnologiyalarni biladigan kadrlar zarur. Shu bois Raqamli texnologiyalar vazirligiga kelgusi yilda 8 ming nafar eng iqtidorli yoshni saralab, nufuzli xalqaro kompaniyalar talabiga mos dastur asosida o‘qitish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, kelgusi yildan “Har bir mahallada kamida ikki nafar dasturchi” loyihasi boshlanishi, AQShlik hamkorlar bilan “Inklyuziv raqamlashtirish” loyihasi doirasida 20 ming aholi bandligi ta’minlanishi aytiladi.

2026-yilda Xalqaro informatika olimpiadasi ilk bor mamlakatimizda o‘tkaziladi. Bunga tayyorgarlik ko‘rish uchun tanlovlar o‘tkazilib, salohiyatli

o‘quvchilar tanlab olinadi, xorijdan malakali murabbiylar jalb qilinadi.

Davlatimiz rahbari raqamlashtirish mahalladan boshlanishi kerakligini ta’kidladi.

Hozir mahalla tizimi xodimlari planshet va kompyuter bilan ta’minlangan. Lekin ulardan to‘la foydalanilmayapti. Masalan, yoshlar yetakchisiga subsidiya olish uchun murojaat qilgan fuqaro haligacha mahalla raisi, hokim yordamchisi yoki bandlik bo‘limidan ishsizlik to‘g‘risida ma’lumotnoma olib kelishga majbur.

Shu bois mutasaddirlarga “Raqamli mahalla” yagona platformasini ishga tushirish va “mahalla yetiligi”ni raqamli tizimlardan foydalanishga o‘qitish topshirildi.

Yig‘ilishda vazirlik va tarmoqlardagi raqamlashtirish holati tahlil qilindi. Iqtisodiyot tarmoqlarida tannarxni tushirish faqat va faqat raqamlashtirish orqali bo‘lishi ta’kidlab o‘tiladi.

Ayrim vazirlik va idoralarda raqamlashtirish ishlari sustligi qayd etildi. Masalan, “Raqamli sog‘liqni saqlash” loyihasi, tibbiy sug‘urtani joriy qilish kechiktyapti. Onkologik kasallarni elektron reyestri yo‘qligi sababli ularga nafaqalar to‘lashda qiyinchilik bo‘lyapti.

Qishloq xo‘jaligida pestitsidlar savdosi va qo‘llanilishi bo‘yicha raqamli nazorat tizimi joriy qilgani yo‘q. Toshkent shahrida aholi tomonidan ijobiy qabul

qilingan “Xalq nazorati” tizimi o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

Bu qo‘lloqlarni tezda bartaraf etish, har bir sohada raqamlashtirishni jadallashtirish zarurligi qat’iy ko‘rsatib o‘tiladi.

– Raqamlashtirishdan bosh tortayotgan rahbar – korrupsiyani yo‘q qilishga intilmagan rahbar, – dedi Prezident.

Soha infratuzilmasi, xususan, internet tezligini yaxshilash masalasiga e’tibor qaratildi. Ayrim hududlarda internet tezligi pastligi, xalqaro magistral yo‘llarning 20 foizi mobil internet bilan qamrab olinmagani ko‘rsatib o‘tiladi. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb qilish vazifasi qo‘yildi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, barcha elektron to‘lov tizimlari uchun bu borada yagona talablarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Umuman, IT xizmatlari hajmini 20 trillion so‘mga, eksportni 800 million dollarga yetkazish, tarmoqlarda 130 ta axborot tizimini joriy qilish va 750 ta davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish borasidagi rejalarini ishlab chiqish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi dolzarb masalalar yuzasidan vazirlar, hokimlar va yosh dasturchilar bilan muloqot qildi.



O'tayotgan har bir kunimizning tinch lahzalari haqida o'ylasam, beixtiyor O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi misralari ko'z o'ngimda gavdalanadi:

# TINCH O'TGAN

## HAR KUNING ALBATTA BAYRAM...



Polkovnik Otabek YULDASHEV, mudofaa vazirining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – matbuot kotibi



*Eng avval tinch bo'lsin ko'ksingda vijdon,  
Tinch bo'lsin el-u yurt, Vatan jonajon.  
G'uborga chulg'anmay shu yer-u osmon,  
Tinch o'tgan har kunning albatta bayram.*

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligini hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni mamlakatimiz miqyosida keng nishonlanishi belgilandi.

Aslida Qurolli Kuchlarimiz tizimida ushbu bayramni tantanali nishonlash chin ma'noda xalq va armiya birlashuvi tomon tashlangan sobit qadamki, buning ma'no-mazmunini hech bir so'z bilan izohlab bo'lmaydi.

Yaqin va yiroq dunyo mamlakatlarida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlar, xalq boshiga tushayotgan og'ir mashaqqat va sinovlar manzarasini bir dam ko'z oldimizga keltirsak, avvalo ushbu farmoyish mohiyatida yotgan asl maqsad-muddaoni teranroq anglaymiz, o'tayotgan tinch va osuda kunlarimiz qimmatini his qilamiz.

Men, avvalo, ushbu shodiyonani yurak va ko'zlarida o't chaqnagan har bir yurtdoshimiz ozod Vatanimizning tinchligi va farovonligi tantanasi sifatida nishonlashi kerak, deb hisoblayman. Chunki bu dovonga yetgunimizcha xalqimizning chinakam irodasi, milliy armiyamizning ulkan salohiyati ko'z oldimizda namoyon bo'ldi.

Farmoyishga binoan, bayram tadbirlarini ko'tarinki ruhda o'tkazish maqsadida barcha mahallalarda, ta'lim va mehnat jamoalarida, harbiy qism hamda muassasalarda so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarning harbiy-jangovar qudratini oshirishdagi islohotlar samaralari, Yangi O'zbekistonni barpo etishda tinchlik va osoyishtalikning ahamiyatini aniq misollar orqali yetkazishga qaratilgan



ma'rifiy uchrashuvlar hamda davra suhbatlari o'tkaziladi.

Bayram mohiyatiga "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiorining singdirilishi ham bejiz emas. Shundan kelib chiqib, barcha hududlarda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va sport tadbirlari, atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat, san'at arboblari, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan hamda xalqaro tanlov, musobaqalarda munosib ishtirok etgan harbiy xizmatchilar sportchilar bilan ijodiy va ko'ngilochar uchrashuvlar tashkil etiladi.

Shu bilan birga, Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda xodimlarning oila a'zolari, xizmat burchini bajarish chog'ida nogiron bo'lib qolgan harbiylar, e'tibor hamda ko'makka muhtoj urush qatnashchilari, faxriylar holidan



xabar olinadi. Allaqachon qat'iy tamoyilga aylanib ulgurgan ushbu an'ana yuqori kayfiyat va saviyada davom etmoqda.

Aslida ushbu tantanalar va sa'y-harakatlar bir oygina davom etmaydi. Buning ramziy ma'nosi bor, albatta. Yurt ravnaqi yo'lida mehnat qilayotgan, mamlakat sha'nini o'z sha'ni singari asrab-avaylashga bel bog'lagan ko'ngillarda bu kabi vatanparvarlik

shodiyonalari hech qachon tugamaydi.

O'ylaymanki, ushbu tadbirlar, birinchi navbatda, xalq bilan hamnafaslik, birdamlik kayfiyatini oshirsa, ikkinchidan, yurtdoshlarimizga milliy armiyamiz salohiyati, harbiy xizmatchining muqaddas burchi, yurt tinchligini himoya qilishdek sharafli kasbga bo'lgan havas va ishtiyoqni oshirishga xizmat qiladi.





## “O‘Z KASBINING USTASI”: RAQOBAT SOG‘LOM,

Markaziy harbiy okrugning “Forish” umumqo‘shin tog‘ poligonida Qurolli Kuchlar miqyosida “O‘z kasbining ustasi” unvoni uchun ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi o‘tkazildi.

Tanlovning tantanali ochilish marosimida Markaziy harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondoni polkovnik Farrux Ziyaboyev va boshqalar mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yanada mustahkamlash, yurt posbonlarining o‘z kasbiga sadoqat hissini kuchaytirish, qo‘shinlarning jangovar shayligini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilayotganini ta’kidlab, barcha ishtirokchilarga ulkan zafar tiladi. Tantanali tadbirda Jizzax viloyati musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan Jaloliddin Manguberdi va Amir Temur qiyofasi gavdalantirilib, tarixiy monologlari ijro etildi. Okrug harbiy orkestri tanlov ishtirokchilari e‘tiboriga o‘zining musiqiy dasturini namoyish etdi.

So‘ng tanlovning nazariy va amaliy shartlariga start berildi. Hududiy bosqichlarda o‘z yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan musobaqa ishtirokchilari beshta yo‘nalish bo‘yicha kuch sinashdi. Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining qo‘shilma, qism va muassasalarida kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar “Eng ilg‘or brigada komandiri”, “Eng ilg‘or batalyon komandiri”, “Eng ilg‘or vzvod komandiri”, “Eng ilg‘or guruh komandiri” va “Eng ilg‘or serjant” nominatsiyalari bo‘yicha bellashdi.

2004-yildan beri Qurolli Kuchlar miqyosida tashkil etib kelinayotgan ushbu ko‘rik-tanlov o‘z nomi bilan har yili eng sara mutaxassislarni, yuksak jangovar tayyorgarlik, abjirlik va mahorat egalarini kashf etmoqda.

Jangda to‘g‘ri tanlangan taktika g‘alaba qozonish imkonini beradi. Ko‘rik-tanlovda har bir qatnashchining bu boradagi bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Berilgan topshiriqqa ko‘ra, qaror qabul qilish, shaxsiy tarkibga aniq vazifalar berish, shartli dushman joylashgan koordinatalarini aniqlash va harakat rejasini shunga muvofiq, ishlab chiqish har bir komandirning yuksak bilim va tajribasiga bevosita bog‘liq. Qatnashchilarning bu boradagi ko‘nikmalari harbiy topografiya bo‘yicha berilgan vazifalarda baholandi.

Umumharbiy nizom va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlik bo‘yicha 50 ta savolga javob topish uchun har bir ishtirokchiga 120 daqiqa vaqt berildi. Bunda egallangan kasbiy bilimlar yuzaga chiqdi. Xullas, bu shartlar har bir komandirda turli nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, shaxsiy tarkibni mohirona boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha ham ishtirokchilar belgilangan sinovlardan o‘tishdi. Mardlar maydonda sinaladi. G‘oliblik uchun kurash olib borgan azamatlar astoydil intilib, eng ilg‘or mutaxassis ekanini amalda isbotladi.

Bellashuvlarning keyingi shartlari yanada murosasiz tarzda kechdi. Boisi “Forish” tog‘ dala-o‘quv maydoni qishning oppoq ko‘rpasiga o‘raldi. Atrofni qoplagan qor va tobora tushib borayotgan harorat. Ana shunday sharoitda davom etgan







## SHIJOAT KATTA



ko'rik-tanlovda harbiy xizmatchilarning merganlik mahorati sinovdan o'tkazildi. Dastlab "Eng ilg'or brigada komandiri", "Eng ilg'or batalyon komandiri" va "Eng ilg'or vzvod komandiri" yo'nalishlaridagi ishtirokchilar PM pistoletidan 50 metr masofadagi nishonlarni yakson etish shartida bellashdi. Buning uchun har bir qatnashchiga 10 donadan o'q berildi.

Tog' yonbag'rida joylashgan keyingi o'quv joyida guruh komandirlari va serjantlar AK-74 avtomatidan 100 metrdagi nishonlarni 10 dona o'q bilan yo'q qilishi kerak. Ishtirokchilarga ushbu vazifani bajarishi uchun 3 daqiqa vaqt berildi. Hakamlar hay'ati harbiy xizmatchilarning mahoratini xolis va shaffof tarzda baholab bordi.

– Komandir shaxsiy tarkibga har tomonlama namuna bo'lishi kerak, – deydi "Eng ilg'or brigada komandiri" tanlovida Mudofaa vazirligi tarkibida ishtirok etgan podpolkovnik Jamshid Bayzakov. – Ko'rsatish, o'rgatish, bajarib ko'rsatish jangovar tayyorgarlikning asosiy mezonlaridan biridir.

Bu shaxsiy tarkibga doim nazariy qismini aytilish bilan emas, uni amalda ko'rsatish bilan belgilanadi. Biz, komandirlar qo'l ostimizdagi shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlikka o'rgatib, o'zimizning jangovar tayyorgarlikning barcha o'quv predmetlaridan chuqur o'rgangan bilimlarimizni yil yakunida ushbu tanlov orqali sarhisob qildik.

Boshqa kuch tuzilmalaridagi raqiblarimizning mazkur tanlovga puxta tayyorgarligi yaqqol sezilganiga qaramay, bir nechta shartlarda yaqqol peshqadamlik qilganim menga bildirilgan ishonchni oqlash sari tashlangan qadamdir. Bu musobaqa Qurolli Kuchlar miqyosida boshqa hamkasblarimiz bilan fikr va tajriba almashish imkoniyatini bergani bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Musobaqada kimdir g'olib, kimdir esa mag'lub bo'ladi. Bu yerda o'zaro kuch sinashgan harbiy xizmatchilar faqat g'alaba qozonishni o'z oldiga maqsad qilgan. Chunki ishtirokchilarning har biri o'z kasbining chinakam ustasi. Bu bir hafta davomida kechgan bahslarda o'z aksini topdi. Muhimi, bilimlar sinovdan o'tdi, tajribalar almashildi.

Eslatib o'tamiz, barcha nominatsiya g'oliblari 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida tantanali ravishda taqdirlanadi.



**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**





bilimlarini oshirish, cho'l sharoitida ekstremal yoki nostandart vaziyatlarga tushgan taqdirda yuklatilgan jangovar vazifani bajarilishiga samarali erishish hamda shaxsiy tarkib sog'lig'ini saqlash bo'yicha zarur bilimlar yetkazildi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, iqlimi o'zgaruvchan, bepoyon qumlik va namlik darajasi past bo'lgan hududlarda, birinchi navbatda, harbiy xizmatchilarning yashovchanligini oshirish, qo'yilgan jangovar vazifani sifatli bajarilishiga erishish hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish maqsadida 2021-yilda "Yangiariq" umumqo'shin poligoni negizida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bo'linmalarini

# YASHOVCHANLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA SAYYOR MASHG'ULOT

Xorazm viloyatidagi "Yangiariq" umumqo'shin poligoni negizida tashkil etilgan Mudofaa vazirligi bo'linmalarini cho'l sharoitida tayyorlash markazi mutaxassislari tomonidan Nukus va Urganch garnizonlaridagi harbiy qismlarda cho'lda yashab qolish bo'yicha sayyor mashg'ulotlar tashkil etildi.



Mashg'ulotlarda markazning tajribali o'qituvchi va yo'riqchilari tomonidan sahroda olov va suv topish, uni tozalash, zaxirasini yaratish, ov qilish hamda ozuqa zaxirasini g'amlash,

ovqat tayyorlash, tibbiy yordam ko'rsatish, hududda bo'linmalarining joylashuvi uchun pana joylarni jihozlash, niqoblash, kuzatuv ishlarini olib borish bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Yaradorlarga hamda zaharli hasharotlar chaqqan vaqtda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tushunchalar oshirildi.

Sayyor mashg'ulotlar davomida harbiy xizmatchilarning kasbiy

cho'l sharoitida tayyorlash markazi yaratilib, o'quv jarayoni yo'lga qo'yildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati**



# KASBIY TAYYORGARLIKDA XORIJIY TILLAR

Mamlakatimizda mudofaa qudratini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlash, jamiyatda tinchlik hamda barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash hamda himoya qilish bugungi kun harbiy xizmatchilarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda harbiy xizmatga bo'lgan e'tibor yanada oshdi, harbiy ta'lim muassasalariga qabul soni va mutaxassislarni tayyorlash tizimi tubdan takomillashtirildi.

Rivojlangan davlatlar bilan harbiy hamkorlik, harbiy-texnik ma'lumotlar almashinuvi kengaymoqda, qo'shma harbiy o'quv mashg'ulotlar yuqori saviyada o'tkazilmoqda, harbiy xizmatchilarimizning armiya o'yinlaridagi ishtiroki bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Ushbu armiya o'yinlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari so'nggi yillarda faol ishtirok etib, 2022-yil Xalqaro armiya o'yinlari yakuniga ko'ra, 2-o'rinni egalladi. Hamkorliklarning yanada jadallashishi, harbiy xizmatchilar tomonidan o'z kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan ishonch, ma'suliyat va xorij tillarini chuqur o'rganishga bo'lgan maqsadli harakat yo'llari kengaymoqda.

Harbiy xizmatchilarning xorij tillarini o'zlashtirishi kasbiy faoliyat, fan va texnikaning so'nggi yutuqlari bilan o'z vaqtida tanishish, armiya o'yinlari hamda qo'shma harbiy o'quvlarni o'tkazishda boshqa davlat harbiy mutaxassislari bilan samarali aloqa o'rnatish imkonini beradi. Xorij tillarini puxta o'zlashtirmasdan turib, kasbiy tayyorgarligi, mahalliy va xorijiy ilmiy, harbiy fikrning so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan, keng bilimdon ofitserni tayyorlash, professionalni shakllantirishning dolzarb muammosini hal qilib bo'lmaydi.

Harbiy xizmatchilarning kommunikativ qobiliyatlarini va ko'nikmalarini rivojlantirishga, professional kommunikativ kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi sifatida xorij tillari yordam beradi. Kommunikativ ta'lim asosiy zamonaviy usullardan biri bo'lib, muloqot jarayonining modeli sifatida o'quv jarayonini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun zamonaviy sharoitda xorij tillarida muloqot madaniyatini oshirishga hissa qo'shishi mumkin.

Mashg'ulotlar davomida kursant va tinglovchilar muloqot texnikasini, nutq odob-axloq qoidalarini, dialogik va guruhli muloqot strategiyasi hamda taktikasini, turli kommunikativ vazifalarni hal qilishni, muloqot qilish ko'nikmalarini egallash, boshqa harbiy xizmatchilar va tinch aholi bilan aloqa

o'rnatish hamda tashabbus ko'rsatishni o'rganadi. Bundan tashqari, oliy harbiy ta'lim muassasasidagi bo'lg'usi ofitserlarning to'laqonli muloqoti ham funksional, ham hissiy-shaxsiy rivojlanishiga olib keladi.

Eng muhimi, xorij tillarini bilish harbiy xizmatchilarning muhim fazilatlarini shakllantirishga va kelajakdagi mutaxassis (*ofitser*) uchun professional bo'lib shakllanishga hissa qo'shishi mumkin.

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatni o'tashda, ya'ni armiyaga nafaqat ma'lum kasb vakillari, balki keng vakolatlarga ega yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan xorij tillarini biladigan harbiy xizmatchilarga talab ortib bormoqda. Mudofaa vazirligi rivojlangan mamlakatlar bilan harbiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratmoqda. Shunday qilib, bo'lajak ofitserni ma'lum bir faoliyatning lingvistik va kasbiy xususiyatlari bilan tanishtirish dolzarb vazifa, bu kasbiy kompetensiya harbiy mutaxassisning malaka shartlaridan biriga aylandi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonida xorij tillarining muhim rolini ta'kidlab, uning asosiy funksiyalariga e'tibor qaratish lozim. Albatta, xorij tillarining umumiy vazifalaridan biri, boshqa har qanday o'quv fanlari singari kursant va tinglovchilarning umumiy rivojlanishini ta'minlash, uning dunyoqarashini, ushbu tillarda mukammal so'zlashish, harbiy hamda maxsus bilimlarini kengaytirishdan iborat. Xorij tillari kursant va

tinglovchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi va kommunikativ o'qitish harbiy xizmatchining barcha aqliy funksiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu umumlashtirilgan fikrlashni rivojlantirishga yorqin ta'sir ko'rsatadi. Faqat ona tilida gapiradigan odamning ongida fikrning mohiyati va uning loyihalash usullari uzviy bog'liqdir. Xorij tillari ona tili kabi fikrlarni ifodalashning boshqa usullari, shakl va ma'no o'rtasidagi boshqa aloqalar mavjudligini tushunishga imkon beradi.

Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, xorij tillarini o'rganishda tafakkurning rivojlanishi ona tili bilan taqqoslash orqali emas, balki o'quv jarayonining semantik mazmuni bilan bog'liq muammoli elementlarni o'z ichiga olgan doimiy murakkab nutq-fikrlash vazifalarini hal qilish orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, fikrlashning kognitiv va kommunikativ funksiyasi faol rivojlanmoqda. Xorij tillarini taqqoslash, tahlil, sintez qilish, shuningdek taqlid qilish qobiliyatlari, asosiy narsani ta'kidlash qobiliyati, xotiraning barcha turlari kabi muhim aqliy operatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quv jarayonidagi haqiqiy aloqa vaziyatlarini simulyatsiya qilish, rolli o'yinlarda ishtirok etish, taxmin qilingan sharoitlarda harakatlar kelajakdagi ofitserlarning tasavvurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xorijiy tillarni o'rganishning muloqot madaniyatiga, ona tilidagi nutq faoliyatiga foydali ta'sirini ta'kidlash lozim. Ya'ni nutq ko'nikmalarini shakllantirish kursant va tinglovchilarning nutq qobiliyatining barcha darajalarini rivojlantirishga yordam beradi: eshitish, ko'rish va his etish. Kursant va tinglovchilarning har bir harakatning maqsadlarini ifoda etilgan tarkib va ular uchun mavjud bo'lgan til vositalari bilan o'zaro bog'lab, nutq xatti-harakatlarini rejalashtirishni o'rganadi. Matn ustida ishlash sizni umuman kitob o'qish haqida o'ylashga o'rgatadi. Reja tuzish, matnga tezislar, mavzu, reja yoki chizmalar, grammatik va leksik

vazifalar, mashg'ulotlardan tashqari o'qish kabi mashqlar o'z fikrlarini mantiqiy ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bularning barchasi, shubhasiz, nafaqat nutqni, balki umumiy ko'nikmani ham yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy sharoitlarda xorij tillari umumiy ta'lim va ta'lim funksiyalarining asosi emas. Xorij tillari kasbiy kompetensiyani shakllantirish vositasi sifatida, ya'ni kelajakdagi kasbga qiziqish va iloji boricha ko'proq aloqa kanallari orqali bilim olish istagi, ulardan biri bu holda kasbiy sohadagi yutuqlarga erishish imkoniyatini beradi. Bu funksiya butun o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv materialining mazmuni, uning yo'nalishi, shuningdek ushbu materialni joriy etish usullari va o'quv jarayoniga o'rgatuvchi hamda o'rganuvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bu yerda strategik maqsad kasbiy rivojlanish xorij tillarini o'zlashtirish bilan bog'liq taktik maqsadlarga erishish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, kursant va tinglovchilar maxsus bilimlarni egallash istagi va chet tilini o'zlashtirish muvaffaqiyati o'rtasida ikki tomonlama munosabatlar o'rnatiladi. Kursantlarning xorij tillarini maxsus sohada bilim olish vositasi ekanligini bilishi ushbu vositani o'zlashtirish istagini keltirib chiqarishi kerak.

Xorij tillarini bilishda, qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'ladi. Kasbiy mahoratini oshiradigan ushbu toifalar xorij harbiy mutaxassislarning yutuqlari bilan tanishish va shu orqali ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursant va tinglovchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati masalasi juda zamonaviy va dolzarbdir.

**Podpolkovnik  
Sherali QAMBAROV,  
podpolkovnik Roman ISMAILOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchilari**



# UJAR

## TURKISTON BURGUTLARI EDI

Davlatimiz rahbari ta'kidlashicha, so'nggi ikki yilda O'zbekiston Oliy sudi tomonidan 850 nafardan ziyod, bu yil 240 nafar qatag'on qurboni bo'lgan jabrdiyda vatandoshimizning nomi oqlandi.

2021-yil 25-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida mustabid sovet davrida qatag'on qilingan 115 nafar shaxsni oqlash yuzasidan 6 ta jinoyat ishi qayta ko'rib chiqildi.

Ularning orasida Ibrohimbek va uning 15 nafar izdoshiga aloqador ish ham bor edi. Oliy sud mazkur jinoyat ishi sud tomonidan ko'rib chiqilmagani, jinoyat ishida sud hukmi yoki bayonnomasi mavjud emasligini aniqladi va Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan, Ibrohimbek va u bilan birga otilgan 15 nafar shaxsni oqlash haqida hukm chiqardi.

Madaminbek, Shermuhammadbek, Ibrohimbek Laqay, Junaidxonlar va boshqa yigitlar Turkiston burgutlari edi...

1919-yil 18-fevralda Madaminbek qo'shinlari Farg'ona viloyatining markazi Skobelev (*hozirgi Farg'ona*) shahriga yorib kirdi. Qizil askarlar bilan istiqolchilar o'rtasida shahar ko'chalarida qizg'in janglar bo'ldi. Madaminbek yigitlari shahardagi viloyat qamoqxonasiga hujum qilib, u yerda hibsdan saqlanayotgan 200 safdoshini ozod etdi va ularni o'zlari bilan olib ketdi. Madaminbekning bu jasoratiga tan berish kerak. Chunki bu paytda Farg'ona viloyatida M. Safonov qo'mondonligida 20 000 kishilik yaxshi qurollangan qizil askarlar mavjud edi. Istiqolchilar qo'shini butun vodiya faol jang harakatlarini olib bordi. 20-fevralda 1 500 kishidan iborat qo'shin Namangan uyezdining eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Chustni egallaydi.

Madaminbek Farg'ona vodiysida Sovet hukumati organlariga muqobil bo'lgan siyosiy boshqaruv tizimini joriy etdi. Uning ashaddiy dushmani bo'lgan Gromatovich Madaminbek tuzgan hukumat haqida shunday yozadi:

*"U bizning kamchilik va xatolarimizdan mohirona foydalandi. O'z qo'shiniga yagona, uyushgan harbiy qo'shilma tusini bera oldi. U askarlari orasida kuchli harbiy intizom o'rnatdi".*

Madaminbek harbiy va moddiy yordam so'rab, Buxoro amirligi va Afg'oniston hukumatiga o'z vakillarini yuborib, hech qanday yordam olmaydi.

Sovetlar davrida yozilgan adabiyotlarda Madaminbekning "sotqin" sifatida Shermuhammadbekning buyrug'i bilan Xolxo'ja tomonidan otib tashlanganligi ta'kidlandi. Mish-mishlarga asoslangan shunday fikrlarni "O'zbekiston tarixi" mualliflari ham ilgari suradilar. Ingliz tarixchisi Glende Frezer o'zining "Bosmachilar" asarida: *"Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasi uchun jo'natildi. Shermuhammadbek Madaminni ayg'oqchi sifatida 14-may kuni otib tashladi"* deb yozadi.

Turk tarixchisi Ali Bodomchining ikki jildlik "Qo'rboshilar" asarida Madaminbekni



Shermuhammad va Xolxo'ja o'ldirgan degan fikrlarni rad etadi. U Madaminbekni o'ldirishni sovetlar tashkil etganligini asosli dalillar bilan isbotlaydi. Bu ishni Xolxo'janing askarlari bo'lmish, qizillarga sotilgan Soyib Qori va Lutfullah mahdumlar amalga oshirgan. Bu fikrlarga Shermuhammadbek yozib qoldirgan esdaliklar hamohangdir: *"Muhammad Aminbekning o'lganini, – deb eslaydi Shermuhammadbek, – men kech eshitdim. Xolxo'ja Madaminbekni asir olgan paytda uni askarlaridan Soyib Qori va Lutfullah mahdumga topshirgan edi. Bular uni o'ldirib Buxoroga qochadilar. Muhammad Aminbek men yoki Xolxo'ja tomonidan o'ldirilgan degan fikr ruslar tomonidan bizga qarshi qilingan tashviqot edi. Men shaxsan Madaminbekni ruslar bilan qo'shilganiga achchiqlangan bo'lsam ham, avval buyuk ishlar qilgani uchun uni hurmat qilar edim. O'limi meni juda parishon qildi. Agar u menga asir tushganida uning o'tmishdagi qilmishi uchun Afg'onistonga jo'natar edim. Qotil ma'lum va bu voqeada ruslarning qo'li bor"*.

Shermuhammadbek Milliy ozodlik harakatining eng sobit qadam namoyandalaridan biri bo'lishiga qaramay, ochig'ini aytish kerak, xalqimizda uning siymosiga yaxshi munosabat shakllanmagan. *"Kim u?"* – deb so'rashadi. Agar Ko'rsheymat desangiz darhol tushunishadi. Safarbarlikka qarshi norozilik harakati ko'p joylarda qo'zg'olonlonga aylanib ketadi. Shunday qo'zg'olonlardan biri Toshloqda kechadi. Atrof qishloqlar aholisi oqib kelib, volost boshqarmasi binosini o'rab oldilar. Odamlar safarbarlik bekor



qilinishini, ro'yxatlar adolatsizlik asosida tuzilganligi uchun ularni yoqib yuborishni talab qilib chiqdilar.

Shu voqeada Shermuhammadbek politsiyaga *"Agar mana shu men bilan birga bo'lgan yigitlardan birortasiga biror narsa bo'lsa, ko'ramiz, hammangni ichagingizga osamiz"*, deydi va ro'yxatni tashqariga olib chiqib, yoqib yuboradi. Bolsheviklar maddohlaridan birining e'tirof qilishicha, *"Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bo'lsa, Shermuhammadbek, shubhasiz, eng xavfli edi"*.

Qo'rboshi Ibrohimbek Laqaydan chiqqan Robin Gud, laqaylik Napoleon laqabini olgan edi. Sovet tarixiga bosmachilar harakatining eng mashhur yetakchisi sifatida kirgan Ibrohimbek 1889-yilda Buxoro amirligi tarkibidagi Dushanbe shahri yaqinida Ko'ktosh qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Chaqaboy o'zbeklarning laqay urug'iga mansub, o'z qishlog'ining oqsqoqli, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro armiyasida to'qsabo (*polkovnik*) yoki amirlik amaldorlaridan edi. 1921-yilda Ibrohimbek Dushanbeni qamal qiladi. Shaharni qizil armiyaning 7-o'qchi polki tarkibidagi 2 ta garnizon jangchilari himoya qilayotgandi.

Uzoq vaqt davom etgan qamal Sovet askarlari sillasini quritib, ochlik, turli kasalliklar, suv va dori yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Natijada, Buxoro Xalq Respublikasi Markaziy ijroqo'mi raisi Usmon Xo'jayev va RSFSR konsuli Nagorniy Dushanbega yetib kelib, Ibrohimbek bilan sulh tuzishga majbur bo'lishadi. Qizil armiya jangchilari Dushanbeni zudlik bilan tark etib, qo'rboshi amalda Sharqiy Buxoroning to'laqonli hokimiga aylanadi.

Shu yil kuz oylarida qizil armiya katta kuch to'plab, Sharqiy Buxoroga qaytadi va qo'zg'olonchilarni tor-mor etadi. Ibrohimbek jangchilari bilan Afg'onistonga chekinishga majbur bo'ladi. 1922-yilda Ibrohimbek lashkarlari bilan Afg'onistonga, Xonobod qishlog'iga ko'chib o'tadi. U Hisorda qo'rboshilar qurultoyini o'tkazib, ularning yetakchisiga aylanib oladi.



Ibrohimbek afg'onistonlik o'zbeklar va tojiklar ko'magida qisqa vaqt ichida 2,5 ming kishilik yangi lashkar to'playdi. Eron va Afg'oniston hududidagi qo'rboshilarni birlashtirishga urinadi. Shuningdek, SSSR hududiga bostirib kirishga ko'p marta harakat qiladi. Ammo bir vaqtning o'zida Nodirshoh tomonidan unga qarshi yuborilgan pushtun jangchilari bilan to'xtovsiz kurashishga majbur bo'ladi.

Harbiy yurishlarda mahoratini toblagan Ibrohimbek pushtunlarga osonlikcha qaqshatqich zarbalar beradi. Qisqa vaqt ichida shoh armiyasi 3 mingdan ortiq jangchisidan ayriladi, qo'rboshi Rustak, Toluqon, Imom-Sohib qishloqlariga o'z noiblarini tayinlaydi. Bolshavoylar firqasi Ibrohimbek, Ismat, Rahmon Dodxoh kabilarni yo'q qilish uchun o'z xohishi bilan taslim bo'lganlarga katta-katta mansab, boyliklar berish uchun maxsus guruhlar tuzilgani tegishli maxfiy hujjatlardan ma'lum. Bularga uchgan uchta sotqin musulmon yigiti qo'rboshi Ismatbekning boshini kesib, Ko'lob harbiy garnizoniga topshiradi, evaziga besh yuz tilladan oladilar, mukofotlar bolshavoylar tomonidan tantanali topshiriladi. Qizillar esa qo'rboshini boshini qoziqqa suqib shahar, qishloqlarga olib borib mitinglar o'tkazadilar. Bunday vahshiylikdan dahshatga tushgan Ibrohimbek qizil askarlarga sotilgan yigitlar qishlog'iga o't qo'yadi va ularni topib o'ldiradi. Ibrohimbek 1931-yil 12-iyunda Oqbo'sh tog'idagi oxirgi jangda yaralanib, mag'lubiyatga uchraydi. 1932-yilning mart oyida sud qilinib, 31-avgustda qatl etilgan.

Xorazmda ham milliy ozodlik kurashi 1934-yilgacha davom etdi. Kurashni Xiva xonligining amaldagi hukmdori Junaidxon boshqardi. Turkmanlarning yovmud qabilasi junayd tarmog'i vakili bo'lmish Qurbon Muhammad 1857-yilda tavallud topdi. Tug'ma salohiyati tufayli, madrasada o'qimasdan, mirob, qozi lavozimlariga erishdi. Dehqonchiligi faqat sug'orish bilan bog'liq Xorazmda miroblik yuqori darajali mansab hisoblanadi. 1914-yili Xiva hukmdori Asfandiyorxon uni saltanatdagi barcha turkman qabilalarining sardori etib tayinlaydi.

Asfandiyorxonning siyosati va tutgan yo'li, xonlikning tanazzul botqog'iga botib borishi Xorazmda ham hokimiyat uchun kurashning kuchayishiga turtki bo'ldi. Bu kurash Qurbon Muhammadni ham chetlab o'tmadi. U 1915-yili o'ziga Junaidxon degan nom olib, hokimiyat uchun kurashga qo'shildi. 1918-yili u saroy a'yonlari yordamida davlat to'ntarishi o'tkazib, taxtga Asfandiyorxonning akasi Said Abdullaxon To'rani o'tkazdi, o'zi qo'shin sardori vazifasida turib, davlatni boshqardi.

1920-yilning bahorida sovetlar hokimiyati "Xorazm inqilobchilariga birodarlik yordami" bahonasida Xorazmga katta qo'shin tashladi. Oqibatda xonlik tugatilib, Xorazm Xalq Soveti Respublikasi nomli hukumat tuzildi. Junaidxon turkman sahrulariga chekinishga majbur bo'ldi. U bir oz kuch to'plab, Milliy ozodlik harakatini boshlab yubordi va 1929-yilgacha tinimsiz jang qildi. 1929-yili Eronga o'tib, chegaraga yaqin hududda sovetlarga qarshi kurashni davom ettirdi. 1931-yilda Sovet hukumatining qat'iy talabi bilan Eron hukumati Junaidxonni Erondan chiqarib yuborishga majbur bo'ldi. Junaidxon Afg'onistonga o'tib, 1938-yil vafotiga qadar kurashni davom ettirdi.

Bu voqealarni eshitib, insonning qalbi larzaga keladi. Ha ota-bobolarimiz aql bovar qilmaydigan azob-uqubatlarga qaramay, yovga qarshi jon-jahdi bilan kurashgan. Ularning mardligi-yu jasorati, yurtga muhabbati-yu sadoqatidan yuragimiz g'ururga to'ladi. Biz bugungi avlod-ajdodlarimiz bilan faqatgina faxrlanib qolmay, ulardek bo'lishga harakat qilishimiz lozim.

**Azizbek ESHMAMATOV,**  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi



1922-yil. O'zbek qizlari boshqa davlat tugul, qo'shni mahallalarga ham deyarli bormagan shunday davrda Germaniyaga o'qishga yuborilgan 70 nafar talaba orasida Maryam Sultonmurodova va Xayriniso Majidxonova ham bor edi.

# BIRI OTILGAN, IKKINCHISI SURGUN QILINGAN



Ular Germaniyaga borgach, birdaniga ta'lim muassasalariga qabul qilinishi qiyin edi. Sababi til bilmasdilar. Ilk bor o'zbekistonlik talabalar Germaniyaga yetib borib poyezddan tushganida Rossiyadan borib, shu davlatda o'qiyotgan talabalar oq, qizil bayroqlar ko'tarib olib: "O'rtasi Osiyodan tuyalar, eshaklar keldi", deb kelgan yoshlarni haqorat qilib, nemislarda bizning talabalarga nisbatan nafrat uyg'otishga harakat qilgan.

Vatandosh talabalar nemis oilalariga taqsimlab beriladi va ular nemis tilini o'rganadi, oilalarning ularga mehri tushadi. Shundan so'ng o'zbekistonlik talabalar turli ta'lim muassasalariga o'qishga joylashtiriladi.

Germaniyadan keltirgan tibbiyotga oid turli qo'llanmalarni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishgan, ilmiy tadqiqotlarini boshlagan edilar".

Xayriniso Majidxonova 1999-yilga kelibgina to'la oqlanadi.

## ILM OLIB, KUN KO'RMAGAN YANA BIR TURKISTON QIZI

Xayriniso Majidxonova bilan birga Germaniyaga o'qishga ketgan qizlardan yana biri – Maryam Sultonmurodova edi.

U xorazmlik Jumaniyoz ismli ziyoli insonning qizi edi. Bu odam Xiva xonligidagi davlat to'ntarishida qatnashib, bu yerda jadidlar hukmronligini o'rnatish orzusi bilan yashagan. Shu sabab qamoqqa olinadi va o'ldiriladi. Maryam ilg'or kishining qizi bo'lgani uchun tatar maktabida o'qiydi va 1911-yilda Toshkentdagi tatar maorif institutiga o'qishga kiradi. 1922-yilda 70 nafar talaba orasida Germaniyaga o'qishga ketadi.

Maryam Sultonmurodova jurnalistika sohasida mutaxassis bo'lib yetishadi, nemis adabiyotini chuqur o'rganadi. O'zbekistonga qaytgach, bir muddat maorif boshqaruvi tizimida, jurnalistika sohasida ishlaydi, nemis tilidan tarjimalar qiladi. 1937-yilda esa Germaniya ta'limini olib kelganlarni qamash boshlangach, Maryam Sultonmurodova birinchilardan bo'lib qamoqqa olinadi. Uning qo'lida yosh bolasi bor edi.

Bu haqda o'zi shunday eslaydi: "1937-yilgi tergovdagi ko'rsatmalarni tasdiqlamayman. Shaxsan o'zim bunday ko'rsatma bermaganman. Meni tergov qilgan chog'larida qaydnomaga imzo chekishga majbur qildilar. Lekin unda nima yozilganligini o'qimaganman, o'qishga berishmagan ham. Bu hujjatlarning mazmuni bilan tanishishga ixtiyor bildirganimda, "bolangni olib qo'yamiz", deb qo'rqitishdi".

1939-yilda Maryam Sultonmurodovaga 10 yillik qamoq jazosi tayinlanadi. Jazoni avvaliga Toshkent, keyin Qozon va Moskva yaqinidagi Suzdal turmalarida o'tagan, undan so'ng Uzoq Sharqqa yuborilib, qurilishda ishlatilgan.

Maryam Sultonmurodova 10 yillik qamoqni tugatib chiqqach ham, 1949-yilda yana qamoqqa olinadi, bu safar Krasnoyarskka surgun qilinadi. Stalin o'limidan so'ng 1957-yilga kelibgina tinmay murojaat qilaverib, o'zining aybsiz qamalganini isbotlashga muvaffaq bo'ladi.

Hayoti ta'qib, chetlatishlar bilan o'tgan Maryamga Xorazmda ish berishmaydi, uni sig'dirishmaydi. Shundan so'ng u chekka qishloqqa ketib, o'sha yerda kasalxona ochib, odamlarga yordam berish bilan hayot kechiradi.

Zilola G'AYBULLAYEVA tayyorladi.



Yigirmanchi asrda Turkistonni qoloqlikdan qutqarib, odamlarni savodli qilishga bel bog'lagan jadidchilik harakati namoyandalari yoshlarni Yevropaga o'qishga yuborib, mamlakatni taraqqiyotga boshlaydigan kadrlar yetishtirishni maqsad qiladi.

Bu vaqtda xalqning turmush tarzi, madaniyati, fan, san'ati nihoyatda og'ir ahvolda bo'lgan. Turkiston – chor Rossiyasi mustamlakasi edi, jadidlar mustamlaka zanjirlarini parchalash uchun bolalarni, yoshlarni o'qitish, zamonaviy fanlarga o'rgatish kerak degan qarorga keladi. Ularning bu rejalarini qatorida yoshlarni Yevropaga o'qishga yuborish ham o'rin olgandi.

Shu maqsadda 1922-yilda Turkistondan ilk talabalar guruhi Germaniyaga o'qishga yuboriladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy: "Agar biz diniy ulamolarni tayyorlab chiqarmoqchi bo'lsak, yoshlarni Arabiston, Misrga yuborishimiz kerak. Agar zamonaviy fanlar, texnikani rivojlantirishni maqsad qilsak, unda Yevropa mamlakatlariga talabalarni yuborishimiz kerak", degan shior bilan chiqqan. Bu shiorni amalga oshirish uchun hali vaqt pishib yetilmagan edi.

1917-yilda Qo'qonda Turkiston muxtoriyati tuziladi, lekin harbiy tomondan zaif muxtoriyat biroz o'tib, qonga botiriladi. Shundan so'ng yurtida sovet hukmronligi o'rnatiladi. Mana shu orada O'zbekistonda "Bilim hay'ati" tuziladi. Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri talabalarni chetga o'qishga yuborishdan iborat edi.

Tashkilot a'zolari "Har yili 70 nafar talabani xorijga o'qishga yuborsak, yaqin orada mustaqillikka erishishimiz mumkin va mustaqil O'zbekistonni boshqara oladigan kadrlar yetishib chiqadi", deb ishongan. Shunday qilib, 1922-yilda ilk

marta talabalarni o'qishga yuborish rejasi amalga oshadi. O'sha vaqtda Turkiston hukumati ixtiyorida Buxoro amiridan qolgan oltinlarning bir qismi bor edi, xazinaning asosiy qismi Rossiyaga tashib ketilgandi.

1922-yilda 70 nafar talaba Germaniyaga o'qishga yuboriladi. U payti hali yigitlar o'zining shahridan boshqasiga, qizlar esa, ehtimol, mahallasidan nariga o'tmagan edi. Ular o'zbek tilidan boshqa tilni ham bilmagan hatto.

## "O'RTA OSIYODAN TUYALAR, ESHAKLAR KELDI"

Yoshlar orasida o'qishga ketgan Vali Qayum ismli talabaning keyinchalik xotirlashicha, Abdurauf Fitrat talabalar o'qishga ketishidan oldin o'ziga yaqin bo'lgan shogirdlarini to'plab, Samarqanddagi Amir Temur xilxonasiga olib borib, ularning va'dasini oladi. Mazmuni quyidagicha edi: "Biz, yosh o'zbek yigitlari Germaniyaga borib, sanoat, aniq fanlar, qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassis bo'lib kelib, butun hayotimizni O'zbekiston ravnaqi uchun sarflaymiz".

## CHETDA O'QIGAN BIRINCHI O'ZBEK QIZLARI

Xayriniso Majidxonova Toshkentda o'zbek xalqining ziyolilari bilan bitta ko'chada yashagan. Otasi Majidxon ham ziyoli inson edi. Xayriniso otasi ziyoli inson bo'lgani sabab Munavvarqori Abdurashidxonov ochgan jadid maktabida savodi chiqadi. Yangicha usulda ta'lim olgani uchun ham Germaniyada unchalik qiynalmagan bo'lishi mumkin.

Xayriniso Germaniyada dastlab texnikumda, keyin esa universitetda tibbiyot va bolalar pedagogikasi yo'nalishlarida tahsil oladi.

"Ezilgan millatlar, qorong'ilikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga ketgan talabalar orasida qizim Xayriniso ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o'zbek qizini yuborish sharafiga, shukrlar bo'lsunkim, menga nasib bo'lmish", deb xursand bo'lgan edi Xayriniso Majidxonovaning otasi.

Hali yoshlar Germaniya tahsilini davom ettirayotgan paytda sovet hukumati bir bahona bilan ularning stipendiyasini to'xtatib qo'yadi. Shundan so'ng yoshlar hayotida moddiy qiyinchiliklar boshlanadi.

Talabalar Germaniyadan qaytgach, "Ular Yevropaning ta'siriga tushgan, Rossiyani yomon ko'radi", degan ayblovlar bilan qamoqqa olinadi boshlanadi. Hibsiga olinganlar orasida Xayriniso Majidxonova ham bor edi, uning Germaniyadan olib kelgan hamma materiallari yoqib yuboriladi.

Xayriniso Majidxonovaning yondirilgan kitoblari orasida Germaniyadan olib kelingan tibbiy asarlar, bolalar kitoblari bilan birga Gyote, Shillerning nemis tilidagi kitoblari, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi buyuk o'zbek shoir va yozuvchilarining o'zbek tilidagi asarlari ham bor edi. Xayriniso Majidxonova qora ayblovlar bilan otuvga hukm qilinadi. Hukm 1938-yil 9-oktabrda ijro etiladi.

Xayriniso Majidxonovaning jiyani u haqda shunday xotirlaydi: "Xayriniso xolamning orzulari katta edi. Xolam



# “Umid, kuni bizim uchun ham tug‘ar”

O‘tgan haftada, shu sahifamizda ozarbayjon adibi Anor asarlarini tavsiya qilib, uning “1937-yil” hikoyasi haqida to‘xtalgan edik. O‘shanda so‘zni ulug‘ adibimiz Abdulla Qodiriyning qariyb yuz yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan oqlanganini mamnuniyat bilan keltirib o‘tgan edikki, Anorning hikoyasi Qodiriy hayotiga, o‘sha davr o‘zbeklar hayoti, o‘zbek adabiyotiga begona bo‘lmaganligi sababidan.



Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishni yoqtiramam: betakror she‘rlar, yurtimiz va dunyo tabiati, ibratli voqealar, ajoyib hikoyalar, yoshlar ijodi, tezkor xabarlar. Ana shular orasida... Abdulla Qodiriyning “o‘rtamiyona yozuvchi” bo‘lganligi haqidagi post kutilmagan edi. To‘g‘ri, ijtimoiy tarmoqlarda har narsa yoziladi, har bir inson o‘z fikrini, o‘ylarini bayon qiladi. Telbavor bo‘ladimi yoki donishmandona, buni aqlingiz doirasida qabul qilasiz yoki chetlab o‘tasiz. Ammo yillar davomida adabiyot sinchilari tomonidan e‘tirofini topib bo‘lgan, xalq mehri muhabbatini qozongan “O‘tkan kunlar” haqida “O‘rtacha asar. Qahramonlar saviyasi past, maishiy fikrga moyil” degan bu bepisand da‘vo kishini hayron qoldiradi. “Jadidlarga kelsa, ular milliy harakatchi emas, G‘arb g‘oyalariga ergashgan toifa edi”, deb ta‘kidlagan adabiyotshunos Akrom Malikovning bu da‘vodan maqsadi nima? Rosti, anglamadim.

Xalqni ilm-ma‘rifatga da‘vat etish, bu yo‘lda qo‘lidan kelganicha harakat qilish G‘arb g‘oyalariga ergashishmi? Ular shunchaki bir “toifa” edimi? “Toifa” o‘zidan shunchalik o‘chmas iz qoldira olarmidi? Hech bir inson xatodan xoli emas. Ehtimol, ularning ham xatolari bo‘lgandir. Buni chuqur izlanishlar, tadqiqotlar ko‘rsatadi. Taraqqiyda o‘z xalqini yetakchilar safida ko‘rish orzusi, shu yo‘lda zahmat chekish jadidlar harakatining asosi bo‘lgani shubhasiz.

Xalq o‘z qahramonlarini unutmaydi. Hukm chiqarishdan avval, imi-jimida otib tashlasalar ham, xalq yuragiga ko‘mgan edi jadidlarini.

Bugun sizga tavsiya etayotgan kitoblarimiz gazetaning avvalgi sonida e‘lon qilingan “Jadid kulliyotining sakkiz bebaho xazinasi”ning davomidir. To‘plamlar orasida sevib o‘qiganim “O‘zbek yosh shoirlari” kitobidir. Bir vaqtlar ular ham yosh bo‘lganlar: Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbek. Bugungi kun yoshlari kabi yuksak orzular qanotida uchganlar. Ha, ha, uchganlar. Chunki yuksak parvozga intilgan insongina “Sharqning eski chigalini yechaylik!..” deya yozadi.

Yuz yildan so‘ng qayta nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” kitobiga O‘zbek bilim hay‘ati nomidan yozilgan so‘zboshida shunday deyiladi: “Adabiyot bu elning yuksalishin ko‘rsatarg‘on bir quroldir. Dunyoda yashag‘on bir elning yuksalganin va yuksalmaganin shul adabiyoti bilan o‘lchab bilsa bo‘lur.

Adabiyoti yuksalgan bir elning bilim-hunari-da yuksalgusudir. Bir elning adabiyoti qancha yuksalsa, uning bilim-hunarining-da shuncha yuqorulashg‘onlig‘i anglashiladur...

Bundan bizning tutqon tilagimiz: “Shul adabiyotdan elimiz poydalansun va o‘zlarining yuksalish yulduzlarin shunda yozilg‘on adabiyot orqali topsun”, degan bir umidgina bo‘lg‘usudur”.

Abu Rayhon Beruniy haqida so‘z ketganida donolardan biri aytgan ekan: “Uning bilganlaridan ko‘ra bilmaganlarini sanash osonroq”. Xuddi shu bahoni Abdurauf Fitratga ham berish mumkin. Uning mashhur “Mirrix yulduziga” she‘ri yodingizdami?

#### O‘qiyimiz:

“Bormi senda bizim kabi insonlar,  
 Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.  
 O‘rtog‘ qonin qonmay ichkan zuluklar,  
 Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?  
 Bormi senda bir o‘lkani yondurub,  
 O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar.  
 Bormi senda qorin-qursoq yo‘lida  
 Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar?”

“Jadid kulliyoti”ning bundan tashqari yana uchta kitobi qo‘limizda. “O‘zbek yosh shoirlari” kishini ohanrabo kabi o‘ziga tortib oladiki, kulliyotning boshqa kitoblari haqida so‘z demakni unuttiradi. Shuning uchun har bir shoirdan bir-bir parcha keltirishni lozim topdik. Navbat Cho‘lponga kelganida bu juda qiyin, ammo kitobsevar o‘quvchilarimiz bu bebaho xazinani o‘zlari topib, to‘lig‘icha o‘qish imkoniga egalar.

Cho‘lpondan... Vohhh, qiyin rostdan ham, “Go‘zal”danmi yo “Qalandar ishq”dan, “Parcha” ham mukammal to‘rtlik, “Po‘rtana”-chi, usmonlixa “O‘zbek qizi” uchun”dan parcha... Yaxshisi, “Uyqu”dan bo‘la qolsin.

#### O‘qiyimiz:

“Jim turing, shovqunlamang, uyqu ichinda ul pari,  
 Yurma, tek tur, ay shamol, yursang-da yur, biroz nari.  
 Bu yotish, uyqu na yerda, na xayoliy ko‘kda bor,  
 Bu go‘zal sirli tomosho menda, men o‘ksukda bor.  
 Jim turing, shovqunlamang, uyqu ichinda ul pari,  
 Ko‘zlarim to‘ymay qarar, borliq ko‘rinma, tur nari...”

#### Bu esa Botudan, o‘qiyimiz:

“Ko‘nglimda bo‘lgan sevgi tamug‘i  
 Dardli ruhimning sevgan ozug‘i.  
 Bu tamug‘dag‘i olovlar so‘nsa,  
 Tirikligimning bitar yorug‘i...”

#### Elbekning “Til” she‘ridan o‘qiyimiz:

Mungli qushim, unlarni qo‘y, sen sayra,  
 Turk tilining dong‘in chiqar ko‘klarga!  
 Qo‘y ularni, ular yo‘ldan ozsunlar,  
 El ichida bo‘sh-bo‘g‘ozliq sotsunlar!”

Kulliyotning yana bir xazinasi “Adabiyot parchalari” kitobidir. Avvaliga “Terma o‘quv kitobi – xristomatiya” uchun tayyorlansa-da, ma‘lumotlar yetarli bo‘lmagani uchun (O‘zbekiston davlat nashriyoti izohi, Toshkent, 1926-yil, mart) ayrim bir adabiy asar sifatida bosib chiqarilgan. Yoshlar uchun, ayniqsa Cho‘lpon oshiqlari uchun bebaho kitob! Uning nasri ham ulug‘ shoirligini bildirib turadi.

Yana bir kitob “Go‘zal yozg‘ichlar” to‘plamidir. Bu kitob o‘sha davr boshlang‘ich maktablarining to‘rtinchi bo‘limlari uchun tuzilgan o‘qish kitobi ekan. “Jadid kulliyoti” yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan insonlar ko‘ngliga yo‘l topa olishini bilmagan ekanman. Yoshlar uchun muhtasham bir hadya bo‘lganini bilsam-da, kichik yoshlilar uchun ham qiziqarli bo‘lishini kutmagan edim. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Jadid kulliyoti” oila davrasida o‘qiladigan, o‘rganiladigan, qalblarga bir qatim bo‘lsa ham nur olib kiradigan qimmatli kitoblar to‘plamidir.

Shu yerda “Go‘zal yozg‘ichlar”ning tuzguvchisi Elbekning so‘zboshisidan parcha keltiramiz: “Go‘zal yozg‘ichlar” o‘tli bu asarning bosilib maydong‘a chiqqonig‘a hali ko‘b vaqt o‘tmadi. Yolg‘iz iki oyg‘ina vaqt o‘tdi. Ikigina oy orasida olti ming nusxa bosilg‘on bir kitobning tarqab tugalishi chindan-da sevinarliq bir ish! Biz bu kitobning ko‘b tarqalishini ko‘rar ekan, elimizning kitobga bergan ahamiyat va e‘tiborlarini ko‘z oldig‘a keltirib sevinmasdan o‘ta olmadiq. Chindan-da sevinarliq bir ish”.

Aziz o‘quvchi, xulosa o‘zingizdan, biz kitobsevar el bo‘lganmiz, shunday emasmi?!

“Jadid kulliyoti”ning yana bir to‘plami “Ulug‘ Turkiston” kitobidir. Ortiqcha so‘zga o‘rin bermay, kitobdan ulug‘ ma‘rifatchimiz Munavvar qorining quyidagi fikri bilan sahifani yopamiz: “...ezilgan millatning haqiqiy dushmani jaholatdir. Bir millat jaholatdan qutulmag‘uncha oyoqlar ostindan turolmas... Jaholatga g‘alaba qila olmag‘onda ezilishdan qutulmog‘imiz mumkin emasdir... Bitsun jaholat, yashasun ilm va ma‘rifat!”

#### Huzurli mutolaalar tilagi bilan

**Inobat IBROHIMOVA,**  
 “Vatanparvar”



# TARAQQIYOTNING ASOSIY OMILI

Dunyo va Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda, xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Qo'shni davlatlardagi vaziyatning keskinligicha qolayotgani, tabiiyki, mamlakatimizga qo'shimcha mas'uliyat yuklamoqda, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'lami kengayib boryapti.

Dunyoda notinchlik shiddat bilan avj olib bormoqdaki, uni bir sohada yoki makonda jilovlab bo'lmay qoldi. Yer yuzida "Xavfsiz hudud – xavfsiz makon" degan tushunchaning keskin yo'qolib borayotgani, u har bir insonga, har bir jamiyatga, har bir davlatga yoki har bir mintaqaga ham "xavfsiz holat", birinchi navbatda, zarur ehtiyoj ekanligi, xavfsiz holatga ega bo'lish yoki erishish nafaqat bir kishiga, bir jamiyatga yoki bir davlatga bog'liq emasligi yanada aniq va kundek ravshan bo'lib bormoqda.

Jahon hamjamiyatida har qanday mamlakatning xavfsizligiga bo'lgan mavjud tahdidlarni kuch ishlatish, ya'ni bevosita qurolli kuch ishlatib, zo'ravonlik yo'li bilan o'sha davlatdagi muammoviy masalani hal etish usuli ko'p holatlarda kutilgan natijani bermayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda noqonuniy ekstremistik tashkilotlarning faoliyati tahlilidan shuni anglash mumkinki, radikal guruhlar faoliyatining 7 foizi qurolli aralashuv natijasida o'xtatilgan bo'lsa, ularning 40 foizi tinch yo'l bilan siyosiy muzokaralar o'tkazish vositasida barham topgan. Bunday ko'rinishdagi siyosiy yo'nalishdagi muammoviy masalalarni hal etish yuzasidan

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasidagi ko'plab taklif va tashabbuslari e'tiborga molikdir.

Globalashuv jarayonlarining keskin va beqiyos darajada tezlashuvi dunyo mamlakatlari orasida siyosiy, iqtisodiy va diplomatik munosabatlarni keskin o'zgartirib, ba'zi holatlarda esa ushbu ko'rinishdagi kelishmovchiliklar milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda. O'z navbatida, ayrim buyuk davlatlar o'zlarining siyosiy, iqtisodiy va harbiy maqsadlarini amalga oshirish uchun, avvalo, iqtisodiy, diplomatik va axborot sohaslarini asosiy vosita sifatida keng ko'lamda qo'llamoqda.

Bugungi kunga kelib xalqaro munosabatlarda bloklar qarama-qarshiligi davri tugashi harbiy kuchni qo'llash holatlarini rad etishga olib kelmadi, balki avj olish darajasiga ko'tarib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunday ko'rinishdagi mojarolarga XXI asrning boshlari davridagi Fors ko'rfazi, Yugoslaviya va Yaqin Sharq mintaqalarida bo'lib o'tgan voqea-hodisalar hamda bugungi kunda

davom etayotgan Suriya, Ukraina va Rossiya, Falastin va Isroil o'rtasida sodir bo'layotgan lokal (*mahalliy*) urushlarni aytish mumkin. Holbuki, bunday ko'rinishdagi harbiy mojarolar davomida xalqaro yoki mintaqaviy jarayondagi keng qamrovli urushning sodir bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Ta'kidlash joizki, yangi urushning vujudga kelish tahdidini kuchaytiruvchi ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi dunyoning yetakchi davlatlari o'rtasida qizg'in qurollanish poygasining yangi pog'onasiga olib chiqishini vujudga keltirmoqda.

Harbiy kuchni qo'llash imkoniyatini vujudga keltiruvchi davlatlararo, dinlararo, millatlararo va shu kabi jiddiy ziddiyatlarning mavjudligi, o'z navbatida, harbiy tahdidning nafaqat paydo bo'lishini, balki uning amalga oshirilishiga sabab bo'luvchi omil ham hisoblanib qolmoqda.

Dunyodagi ayrim mamlakatlarda o'rtasidagi harbiy tahdidlarning yuzaga kelishi va shakllanishiga u yerdagi demografik o'sish, chegara va moddiy resurslarga bog'liq davlatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan globalashuv hamda harbiy mojarolar va nizolarni yetakchi davlatlar transmilliy kompaniyalari aralashuvida, shuningdek ushbu mamlakatlarning siyosiy manfaatlari foydasiga hal qilinmoqda.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarning taqdiri, o'chmas tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun xavf-xatarlarning oldini olish va uni bartaraf etishda oldindan chora ko'rish hamda tinchlik yo'li bilan hal qilish uslubi ko'proq foydali.

Bu borada O'zbekiston mamlakatni turli ko'rinishdagi harbiy tahdidlardan mudofaa qilinishini davlatning harbiy siyosati – tinchlikparvar va aynan mudofaa xarakteriga ko'proq urg'u berganligi hamda e'tibor qaratganligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekistonning xavfsizlik va mudofaa sohasidagi siyosati quyidagi prinsiplarga asoslangan:

boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, bundan harbiy tajovuzning oldini olish va uni bartaraf etish hollari mustasno;

xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligining boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi;

boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ehtimol tutilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, har qanday davlatlararo tuzilmadan, agar u harbiy-siyosiy blok etib o'zgartirilsa, chiqib ketish huquqini o'zida saqlab qolish;

mudofaaning yetarli darajada bo'lishi; harbiy qurilishning zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga monand bo'lishi; yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollini ishlab chiqarish, olish, saqlash, tarqatish va joylashtirishdan voz kechish;

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnoma prinsiplariga sodiqlik;

o'z hududida chet el harbiy bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaslik;

Qurolli kuchlarning xorijdagi tinchlik o'rnatish bilan bog'liq operatsiyalar va harbiy mojarolarda ishtirok etmasligi.

Shu bilan birga, davlat tomonidan mamlakatimizning xalqaro maydonda nufuzini yanada kuchaytirishga qaratilgan O'zbekistonning hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, harbiy xavfsizlikni ta'minlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar sohalarda ham tinimsiz ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo'nalishlardagi sa'y-harakatlar davlatimizning mustaqilligini yanada mustahkamlaydi, mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday zamonda davlat harbiy xavfsizligini ta'minlashda "shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini "ichki va tashqi tahdidlar hamda tajovuzdan himoyalash choralarini amalga oshirish", "qurolli mojarolar va urushlarning oldini olish"ga qaratilgan talab va ehtiyojlar hamma vaqt ham doimiy ta'minlanishi lozim bo'ladi.

**Abdurahim MAMADJANOV,**  
**Qurolli Kuchlar**  
**Harbiy meros va zamonaviy**  
**tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi**

**SINOV**

## YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARIDA

Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari uchun "g'alvir suvdan ko'tariladigan palla". Chunki qishki yakuniy nazorat imtihonlari bo'lajak ofitserlarning yarim yil davomida qay darajada bilim va malakaga ega bo'lganini sinovdan o'tkazadi.

HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA QO'SHINLARI-VATANIMIZ QALQONI!



Ayni kunlarda Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida 5-bosqich kursantlarining qishki yakuniy nazorat imtihonlarini topshirish jarayonlari bo'lib o'tmoqda. Unda bo'lajak ofitserlar o'zlarining mutaxassisliklari hamda gumanitar fanlar, taktik maxsus tayyorgarlik, xorijiy tillar va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yarim yil davomida olgan nazariy va amaliy bilimlarini sinovdan o'tkazgan holda, ustozlaridan olgan saboqlarini oqlashga harakat qilmoqda.

Kursantlarga imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishlari uchun barcha qulaylik va shart-sharoitlar yaratilib, professor va malakali o'qituvchi ofitserlar tomonidan qo'shimcha konsultatsiyalar o'tildi.

Yakuniy nazorat sinovlarini qabul qilayotgan komissiya a'zolari kursantlarning bilim, malaka va ko'nikma darajasining zamonaviy davlat ta'lim standartlari talablariga qanchalik muvofiqligini shaffof va xolisona baholamoqda.

Imtihonlarda faqat mustahkam bilimga ega bo'lganlarga yuqori natijalarni qayd etadi. Kursantlarga muvaffaqiyat yor bo'lishini tilaymiz.

**Mayor Sherqo'zi XAKIMOV,**  
**Axborot-kommunikatsiya**  
**texnologiyalari**  
**va aloqa harbiy instituti**



**YENI HILMAS SARKARDAS**



# MO'G'ULLARNI MAG'LUB ETGAN

# QAHRAMON

Milliy harbiy merosimizni, shu jumladan sarkarda ajdodlarimizning harbiylik faoliyatini chuqur o'rganish, uning ochilmagan sahifalarini yoritish va xalqimizga yetkazish ustuvor vazifalardan sanaladi. Chunki xalqimiz tarixida shunday buyuk shaxslar, davlat arboblari va sarkardalar borki, ularning nomlari nafaqat yurtimiz, balki jahon xalqlari tarixida ham muhim o'rin egallaydi.

Ana shunday shaxslardan biri Muzaffar Sayfuddin Qutuzdir. Uning hayot va faoliyat yillari mo'g'ullarning Yaqin Sharqdagi bosqini davriga to'g'ri keladi.

Darvoqe, islom davlati bo'lgan Xorazmshohlar mo'g'ullarning birinchi hujumidayoq yengiladi. Mo'g'ullar Qutuzning oilasidagilarni o'ldirib, uni qul qilib sotib yuborish maqsadida O'rta Osiyodan Shom diyoriga olib boradi. Mo'g'ullar Qutuzdagi o'taketgan g'azabnok fe'l-atvorni ko'rib, uni Qutuz, ya'ni "qopag'on yirtqich" deb ataydi. Bu haqda tarixchi Al-Makriziy shunday yozadi: "Aytishlaricha, uning ismi Mahmud ibn Mahmud edi, uning otasi sulton Jaloliddin amakisining o'g'li edi. Qutuzni mo'g'ullar asir olganlar va uni Damashqqa sotganlar, u yerdan Qohiraga olib ketilgan".

Ayyubiylar podshohi Najmiddin Ayyub yosh bolalarni sotib olib, ularga harbiy va diniy ta'limotdan saboq bera boshlagan bir paytda qul sotuvchilar Qutuzni ham Misrga olib borgan edi. Shunday qilib, Qutuz xon saroyiga keladi. Lekin bu safar qul – mamluk bo'lib keladi. Najmiddin Ayyub mamluklardan bir guruh tuzadi. Ular davlat uchun katta ishlarni bajaradi. Ayyubiylarning Misrdagi hukmronligi qulagandan so'ng hokimiyatni mamluklar o'z qo'lga oladi. Ularining rahbari Qutuz – Misr hukmdoriga aylanadi.

Manbalarda qayd etilishicha, Qutuz mo'g'ullarning bir kun Misrga ham bostirib kirishini bilgan. Doktor Ali as-Sallabiyning "Al-mag'olul-tatar baynal intishari val inqisor" nomli kitobida mo'g'ullarning Misrga borishiga turki bo'lgan sabablarga to'xtaladi.

1. Mo'g'ullar hududni kengaytirish (ekspansiya) siyosati bilan bir mamlakatni bosib olsa, albatta keyingisiga o'tar edi. Demak, ularni Falastindan keyingi bosib olmoqchi bo'lgan yeri Misr bo'lgan.

2. Bu vaqtda islom dunyosida Misrdan boshqa mo'g'ullarning hujumini bartaraf qila oladigan musulmon davlatlari qolmagan edi. Ya'ni islom davlatlari, qal'alari, shaharlari deyarli qulab, faqat Misr qolgan edi.

3. Misr eng muhim strategik joy bo'lgan. Chunki Eskiolam (Yevropa, Afrika va Osiyo)ning markazida joylashgan bo'lib, jahonning asosiy savdo yo'li edi.

4. Misr Shimoliy Afrikaga o'tuvchi darvoza bo'lgan. U paytda Mag'rib katta o'lka edi. Misr qulasa, Mag'rib ham hujumlarga dosh berolmay, parchalanishi turgan gap edi.

5. Misrda mo'g'ullar bosib olgan musulmon o'lkalaridan qochib borganlar ham bor edi. Bu esa mo'g'ullarni xotirjam qilmagan.

6. Misrda davlat boshqaruvi yaxshi bo'lib, ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan islomiy harakatlar, dinda sobit turish hamda mo'g'ullar bosqinidan qochib kelgan olimlar bor edi. Ular birlashib, mo'g'ullar bosib olgan shaharlarni qaytarib olishidan xavfsiragan.

7. Mo'g'ullarning butun dunyoni nazorat qilishiga mamluklar to'sqinlik qilgan. Shuning uchun Misrni bosib olish qarori, saltanatning markazida yuqori darajadagi maslahatchilar bilan birga qabul qilingan.

Mo'g'ullar Qutuzga elchi yuborib, uni o'z ixtiyori bilan bosh egishini talab qilgan. Aks holda, boshqa o'lkalar kabi dahshatli qirg'in bilan qo'rqitilgan. Qutuz mo'g'ullarning bu tahdidiga rad javobini beradi. So'ngra kelajakdagi hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Qutuz insoniyatni mo'g'ullarning yovvoyi madaniyatidan xalos qilish uchun musulmonlar askarlariga o'zi rahbarlik qilishga qaror qiladi. Shunday qilib, mamluklar Ayn-Jalutdagi hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Mo'g'ullar bilan jang qilishga tayyorlangan mamluk askarlari turk-mamluk bahodiri Qutuzning rahbarligi ostida Falastinga qarab yo'lga tushadi. Bu hal qiluvchi jangga Falastingning tanlanishini doktor Sallabiy quyidagicha tushuntiradi: "Muzaffar Qutuz barcha tayyorgarlikdan so'ng urush vaqti

va joyini tanlash kerak bo'ladi. Biz uning mana shu jangda yangi strategik taktikasini kuzatishimiz mumkin. Xorazmshohlardan tortib Falastingacha bo'lgan musulmon hukmdorlari o'z qal'alarini himoya qilish uchun harakat qilayotgan bir paytda sulton Qutuzga himoyalani taktikasi foydasiz edi. Shunda u Falastindagi Ayn-Jalut degan joyini tanlaydi. Bu joy salibchilar egalik qiladigan yerga yaqin edi. Ular ham islom askarlari va mo'g'ullar o'rtasida bo'lib o'tadigan jang uchun yo'lni ochib qo'ygan edi. Bu yer tog'lar orasidagi tekis joy bo'lgani uchun Qutuzning askarlari mo'g'ullarning har qanday hujumiga qarshilik ko'rsatishi qulay edi. Tekislikda yuzma-yuz jang qilsa, kamonchilar uzoq masofadan turib, tog'ning do'ngliklaridan o'q uza olar edi. Shuningdek, Qutuzning askarlari orasida Shom diyollaridan qochib borganlarni ko'p uchratish mumkin edi. Shu qatorida ayyubiylarning amirlari ham bor edi. Ular o'z yerlariga borganda mo'g'ullarni yurtidan quvib chiqarish uchun bor kuchi bilan harakat qiladi. Qutuz Shom diyollarini mo'g'ullardan ozod qilgandan so'ng amirlarga o'z hukumatini topshirishni e'lon qiladi. Shuningdek, Qutuz bu hal qiluvchi jang uchun avgust oyini tanlashi ham bejiz emas. Bu oyda Falastin diyori juda issiq bo'lib, Mo'g'ulistonning sovuq tog'larida o'sgan askarlar kuchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol edi".

Ayn-Jalutga ketayotgan paytda yo'lda musulmon askarlari bosqinchilarning birinchi garnizoni bilan to'qnash keladi. Musulmonlar ularni Falastingning G'azo shahrida tor-mor etadi. Doktor Ali as-Sallabiy 1260-yilning (h. 658-y.) iyul oyida bo'lib o'tgan bu to'qnashuvni musulmonlar uchun o'ta muhim bo'lganini ta'kidlab o'tadi: "Mo'g'ullar musulmonlarning kuchli strategik reja bilan kelayotganini bilardi. Dini, Vatani, sha'ni va or-nomusini himoya qilish uchun qilich yalang'ochlatgan musulmonlar bor ekanini tushunardi. Shuning uchun bu jang musulmonlar uchun katta ahamiyat kasb etardi. Musulmonlar mo'g'ullarning qochib ketayotganini o'z ko'zi bilan ko'radi. O'sha paytda keng tarqalgan, ya'ni: "Agar kimdir senga mo'g'ullar mag'lub bo'libdi, desa, unga ishonmagin", degan gapga nuqta qo'yiladi.

Mamluklar G'azodagi olishuvda g'olib bo'lganidan so'ng hijriy 658-yili ramazon oyining 25-sanasi Ayn-Jalutga yetib keladi. Bu kun – musulmonlar qo'shini yovvoyi mo'g'ullar bilan yuzma-yuz kelgan kun. Bu kunda bosh qo'mondon Muzaffar Qutuz Shom diyollariga qirg'in solgan qonxo'r Kitbuka rahbarlik qilgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi urush e'lon qiladi. Nihoyat, Falastin diyorida muqaddas ramazon oyida insoniyat taqdirini hal qiluvchi jang boshlanadi.

Tarixchi Doktor Ali as-Sallabiy bu jangni quyidagicha ta'riflaydi: "Ikki tarafning hujumi erta tongda – quyosh ko'tarilishi bilan boshlanadi. Vodiy odamlar bilan to'lib toshgan, hayqiriqlar va barabanlarning tovushi urush boshlanganidan darak berardi. Mo'g'ullar qo'mondoni Kitbuka edi. Qutuz o'zining

askarlari sonining dushmanlarinikidan ko'p ekanini bilgan. Shuning uchun asosiy kuchni ortda qoldirib, Beybars yetakchiligi ostidagi qo'shinning hujumga o'tishini amr qiladi. Kitbuka barcha askarlari bilan Beybarsga qarshi hujumga o'tadi. U tuzoqqa tushib qolishini bilgan emas. Ularning ko'p sonli askarlarining qattiq hujumidan qat'i nazar, Beybars sekinlik bilan ortga chekinadi. Qo'qqisdan mo'g'ul askarlari qurshovga olinadi. Qarshi taraflar o'rtasida jang shiddatli tus oladi. Musulmonlarning chap qanoti birdan zaiflashib qoladi. Shunda Muzaffar qutuz jangga o'zi kirib borib, chap qanotni qayta tiklaydi. So'ngra ularni bor kuchi bilan kurashga chorlab, Alloh yo'lida shahid bo'lishlarini eslatib, dushmanlarini ortga chekinishga majbur qiladi. Boshidagi dubulg'asini irg'itib, askarlariga xitoban baland ovozda: "Islomni himoya qilinglar!" deb ular bilan birga hujumga o'tadi. Shunda Alloh taolo ularni o'z g'alabasi bilan siylaydi. Bir necha soat o'tishi bilan musulmonlar mo'g'ullarning asosiy kuchini yakson qiladi. Qochgan mo'g'ullar ortidan Beyt-Sheanagacha quvib kelganlarida, ular musulmonlarga avvalgidan ham kuchliroq hujum qiladi. Alloh taoloning madadi bilan musulmonlar ularni yana mag'lubiyatga uchratadi. Ularning boshliqlari va bir qancha askarlari qatl qilinadi. Shunda sulton askarlar eshitadigan darajada xitob qiladi: "Ey Alloh! Quling Qutuzga madad ber! Oh, islomim! Oh, islomim!"

Mo'g'ullarning ikkinchi hujumini ham bartaraf etganlaridan so'ng Qutuz otidan tushib, yerni o'pib, shukronasiga Alloh taolaga ikki rakaat namoz o'qiydi. Rukniddin Beybars mo'g'ullar ortidan Apameyagacha quvib boradi. Mo'g'ullar u yerda uchinchi hujumga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Musulmonlar qattiq hujumga o'tib, ularni mag'lub etib, katta o'ljalarni qo'lga kiritib, bir qancha otlarga ega bo'ladi".

Muzaffar Sayfuddin Qutuz Ayn-Jalutdagi buyuk g'alabadan so'ng Misrga darhol qaytmay, mo'g'ullar ortidan quvib, ularni Shom diyollaridan butunlay quvib chiqarishga qaror qiladi. Bu buyuk islom bahodiri va u bilan birga jang qilgan mamluk bahodirlari mo'g'ullarni Shom diyorida bir necha kun mobaynida quvib chiqaradi.

Tarixchilarning e'tirof etishicha, Qutuzning Ayn-Jalutdagi g'alabasida "Ulamolar sultoni" degan nomga sazovor bo'lgan mashhur shayx Izuddin Abdulaziz ibn Abdussalomning xizmatlari beqiyos. Qutuz Misr sultoni sifatida hal qiluvchi jangdan oldin askarlarni jangovar holatga keltirish uchun xalqdan mol-mulk yig'ishni istab, shayxdan fatvo berishini talab qiladi. Shayx fatvo berishdan bosh tortib, unga avval mamluklarning amirlarini oltin-kumush va boshqa qimmatbaho buyumlarini yig'ishini aytadi. Amirlar xalq bilan teng bo'lganda, u talab qilgan fatvoni berishni va'da qiladi. Sulton Sayfuddin Qutuz shayx aytmagidek qilib, amirlardan to'plagan oltin-kumushlarni sotib, o'sha pulga askarlarini jangovar holatga keltiradi. Yig'gan pullari biroz oshib ham qoladi. So'ngra shayx Ibn Abdussalom Misr masjidlarining birida odamlarni Alloh yo'lida dini va yurtini himoya qilishga chorlab, ularga sahobalar va undan keyingi o'tgan buyuk qahramonlar tarixidan hikoya qilib berardi. Shayx misrliklar qalbiga g'alabani ruhini solib, ularni shijoatlantiradi. O'zi ham tarafdorlari bilan birga mo'g'ullarning islom davlatlaridan quvib chiqarish uchun urushga o'tlanadi. Natijada musulmonlar Ayn-Jalutdagi hal qiluvchi jangda g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sayfuddin Qutuzning buyukligi Ayn-Jalutdagi mo'g'ullar hujumidan xalos etganida emas, balki musulmonlarning ahvolini o'zgartirib, ularni mag'lubiyat botqog'idan olib chiqib, g'alaba sari yetaklaganidir. Buyuk sarkardaning tengsiz jasorati va matonati bugungi kunda yosh avlodni jismonan baquvvat va ruhan tetik shaxslar sifatida voyaga yetkazishda, ularda fidoyilik, shijoatlilik va qat'iyatlilik fazilatlarini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Bobur NEGMATOV,**  
**Qurolli Kuchlar akademiyasi**  
**dotsenti, falsafa fanlari nomzodi**



# INSON RUHIYATINING TABIIY JAVOBI

*Xalqning ishonchini oqlaydi askar,  
Sarhadlarda jonin yurtga tikadi.  
Dengiz to'lg'iniday jo'sh urgan qalblar,  
Faxr, g'urur ila nafas yutadi.*  
**Sarvinov DUSHANOVA**

XXI asr inson omiliga e'tiborning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Har bir shaxs uchun o'z emotsional holatini boshqarish, yaqinlari bilan sog'lom psixologik munosabatda bo'lish istagi nafaqat boshqa soha vakillarida, balki harbiy xizmatchilar uchun ham juda muhim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasining bosh muharriri Salim Doniyorovga bergan intervyusida yangilanishlar eng avvalo tafakkurdan boshlanishini, ong-u tafakkuri, ruhi uyg'oq odamlardan esa chinakam fidoyilik, tashabbuskorlik va yaratuvchanlikni kutish mumkinligini ta'kidlagan. Buning uchun har bir shaxs emotsional intellektni o'rganishi, rivojlantirishi va stressning oldini olishga erishishi zarur. Vataniy xizmatchi hisoblangan harbiy xizmatchilar uchun bu juda dolzarb masalalardan biridir.

## SIGNAL VA UNDA KELIB CHIQADIGAN XULOSALAR

Harbiy xizmat – qiyin va murakkab faoliyat turlaridan biri. Bu sohadagi har bir shaxs favqulodda vaziyatlarga doimiy ravishda tayyor turishi kerak. Harbiy texnika hamda qurol-aslahalar bilan harakatlanish, hayot-mamot yangi harbiylardan katta ichki bosim, kuchli iroda va barqaror emotsional holatni talab etadi. Ularning psixologik holati shu jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday favqulodda vaziyatlar bir nechta ichki va tashqi omillarga tayanadi.

Harbiy xizmatda bir muhitdan boshqasiga moslashish jarayonida, jangovar xatti-harakatlarni bajarishda harbiylarning emotsional holati barqaror bo'lishi lozim. Beqaror emotsional holat va irodaning sustligi ish faoliyatiga, xizmatga bo'lgan munosabatiga, kasbiy majburiyatini bajarishga, muloqoti va xulq-atvoriga, jangovar topshiriqni to'kis ado etishiga salbiy ta'sir qiladi.

Har bir shaxs hayoti davomida qay sohada faoliyat yuritmasin, yetarlicha uyqu va hissiy kechinmalarni sog'lom psixologik yashab o'tishi lozim. Uyqusizlik va hissiy kechinmalarni yashab o'tmaslik harbiylarda stress va depressiyani yuzaga keltiradi.

Stress paytida inson tanasi muammolar uchun yechim izlash maqsadida adrenalin gormonini ishlab chiqaradi. Buni biz tananing signali sifatida qabul qilishimiz mumkin. Sababi har qanday kichik miqdordagi stress insonni fikrlashga undaydi, muammolarga yechim izlashga chaqiradi. Jiddiy stress tanani zaiflashtiradi, kuchsizlantiradi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi.

Harbiy xizmatchilarda stressni keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilardir:

- ish joyining o'zgarishi;
  - yangi muhitga moslashish muammosi;
  - uyqusizlik;
  - doimiy tartibsiz ish kuni;
  - emotsional holatni boshqarolmaslik;
  - majburiyatlarning yuqoriligi;
  - hissiy yaqinlikning yo'qligi.
- Bunday holatlarda avvalo stressli vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillar ustida ishlash, ularni birmuncha pasaytirish talab qilinadi.

## SALBIY EMOTSIYALARNI TRANSFORMATSIYA QILISH

Jizzax shahri IIB voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektor vazifasida ishlagan leytenant Jahongir Qo'ziyoyev o'z ish faoliyati davomida mustahkam iroda va barqaror emotsional holatni ifoda eta olgan. Jazoni ijro etish koloniyasidan qochgan ikki mahbus haqida xabar berilganida o'z xizmat burchini bajarish uchun shaylanadi. Shu paytda Jahongir Qo'ziyoyevda Vatanga bo'lgan muhabbat va sharafli kasbining mas'uliyati unda kechayotgan hissiyotlarni boshqarishga, vaziyat sabab yuzaga keladigan stressni bartaraf etgan holda mahkumlarni darhol qo'lga olish, o'z joyiga qaytarishga undaydi. Jahongir ikki mahkumni qo'lga olish vaqtida og'ir jarahotlanib, vafot etadi.

Yuqoridagi holatda insonda g'azab va jahl emotsiyasi qo'zg'aladi. Ularni to'g'ri yo'naltirish va bu emotsiyalardan samarali foydalangan holda stressning oldini olish uchun Vataniy himoyachilari doimiy psixologik treninglarda o'z emotsional holatini boshqarish usullari bilan tanishtirib borilishi zarur. Shunday usullardan biri salbiy emotsiyalarni transformatsiya qilish usulidir.

Yuqoridagi voqeada transformatsiya maqsadida o'zini o'zi tahlil qilish quyidagicha kechgan:

1. Hodisa – mahkumlar jazoni ijro etish koloniyasidan qochdi.
2. Fikr – o'z jazosini o'tashdan qochyapti, insonlarga, jamiyatga zarar berishi mumkin.
2. Oqibat – g'azabdaman, jahlim chiqdi, ruhiy zo'riqish boshlandi.
3. Raddiya – ayni paytda ular jazodan qutulib qolmoqchi, ular xato fikrladi, bunga sabab ularda sog'lom

fikrlash shakllantirilmagan va ular o'z emotsiyalarini boshqara olmaydilar. Lekin men reja bilan harakatlansam, g'azab va jahl orqali hosil bo'lgan energiyani to'g'ri yo'naltirsam, kerakli natijaga erishaman.

4. Natija – bilimlardan energiya o'lyapman, qaror qabul qilish tezlashdi, harakatlar tez va aniqlashdi.

Harbiy xizmatchilar ham jangovar harakatlar vaqtida salbiy emotsiyalarni xuddi shu kabi transformatsiya qilishlari mumkin.

## JUDA ODDIY VA SAMARALI USUL

Stressning oldini olishning eng yaxshi usullaridan biri juda oddiy tuyulsa-da, bir tekis va sokin nafas olishdir. Bu stressdagi odamga katta yordam berishi isbotlangan.

Yana bir oddiy va samarali usuli tinch, sokin uyqudir. Bunday uyqu tana uchun eng yaxshi dori, deydi olimlar. Uyqu tinch va sog'lom bo'lish uchun tanaga melatonin deb ataladigan gormon kerak. Bu gormon orqali tana dam oladi, stress va charchoq holatidan chiqadi.

Stressdan xalos bo'lish uchun stressli vaziyatning asl sababi nimada ekanligini aniqlash va shu sabablarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazish lozim.

Stressli vaziyatning oldini olish va o'zgartirishda aniq maqsadlar qo'yish: "Agar rejali ish tuzib chiqsam, men hammasini uddalayman", "Men buning hammasini bosqichma-bosqich amalga oshiraman" kabi fikrlar harbiy xizmatchilarda stressning oldini olish bilan birga uning jangovar ruhini tiklaydi, olg'a undaydi va oqibatda g'alabaga yetaklaydi.

**Stress, hayajon, beqarorlik kabi sifatlarini mustahkam iroda va jasoratga aylantirish harbiy xizmatchilarning ruhiy holati bilan ishlaydigan psixologlarning birdan bir ishi va maqsadi bo'lmog'i lozim. Buning uchun yangi-yangi metodikalardan, jahonning turli nuqtalarida bo'layotgan harbiy harakatlar tahlilidan keng va samarali foydalanish talab etiladi.**

**Nasiba QOBILOVA,**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

## “JANGOVAR RUH – JANGCHINING QUDRATLI QUROLI”



# DOVYURAK FARZANDLARIMIZGA BOQING!



“Vatan ostonadan boshlanadi” deb bejiz aytilmagan. Insoniyat yaralibdiki, yer yuzida turlicha manfaatlar bahonasida urushlar, nizolar bo'lgan. Bugungacha bashariyat bunday kunlarning qanchasini boshdan o'tkazgan – ishtirokchi, guvoh, jabrdiyda, tomoshabin bo'lgan. Shu jumladan, xalqimiz ham. Ammo ko'p ming yillik tariximiz ota-bobolarimizning o'z yurti, millati, asriy qadriyatlarini, o'zligi va sha'ni himoyachisi bo'lganligidan guvohlik beradi. Shuning uchun ham farzandlarga bolalikdan mardlik, botirlik sifatlarini, harbiy san'at ilmlari singdirilgan.

Biz, o'zbeklar ham kurrayi zamindagi boshqa xalqlar kabi qadimiy xalqimiz, ko'p asrlik tarixga egamiz. Ahamoniylar lashkariga qarshi – To'maris

momimiz, Shiroq sheryuragimiz; yunon bosqinchilariga qarshi – Spitamen; arablarga qarshi – Muqanna; mo'g'ul istilochilariga qarshi – mo'ysafid shayx Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur; chorizmga qarshi – Dukchi eshon, Namoz Botir, Abdullabek, Oloy malikasi – Qurbonjon dodxoh (*to'rt o'g'li bilan*), Shermat Botir, nemis fashizmiga qarshi – Sobir Rahimov, Xalloq Aminov... va yana bir qancha xalqimiz butligi,

tinchligi, osoyishtaligi, farovonligi uchun kurashishdek qutlug' janglarda jonini ayamagan yoki fido qilgan yuzlab, minglab millatdosh, eldoshlarimiz jasorati barchamizga o'rnakdir.

Bo'lg'usi jangchida vataniylik tuyg'usining shakllanishida, avvalo, oila, so'ng esa ustoz-murabbiylarning o'rni va ta'siri juda muhim. Jozef Garibaldining “Vatanni lablari bilan emas, yuragi bilan sevganlar menga ergashsin”, degan gaplari hamma uqib olishi va amal qilishi shart bo'lgan da'vatdir.

Ayni paytda jahonning turli hududlarida kechayotgan jangovar harakatlar, xunrezliklar, INSONni qirib tashlashda ishlatilayotgan xilma-xil qurol va vositalar, umuminsoniyatga qarata yo'naltirilayotgan mafkuraviy xurujlar zehniyati hushyor katta-yu kichik yuragiga xavotir, qo'rquv va shu bilan birga yovuzlikka qarshi kurashish hislarini uyg'otmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: “Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda!”

“Botirga yaroq hojat emas”, deyiladi harbiy sohaga oid xalq naqlarida. Chunki botirning, mardning, er yigitning asl quroli – uning katta, sher yuragi, arslon

bilagi, vataniylik maslagi, ilmi, bilimi, tarbiyasi!

Xuddi shu o'g'itni o'g'limiz Abrorjon Rashidovga ham ko'p uqtirganmiz. Bugun u O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida tahsil olmoqda. Uning tanlovi boshimizni ko'kka yetkazdi. Umid qilamizki, Abrorjon Vataniy mudofaasi uchun, jangovar ruh mustahkamligi uchun harbiy taktika va texnikani mukammal egallaydi, ahdigaga sodiq bo'lib, bizning, xalqimizning, ustoz-murabbiylarining ishonchini oqlaydi. Muhimi – maqsadi aniq va to'g'ri!

Qirqdan ortiq mamlakatni birlashtirgan, davlat boshqaruvi va harbiy sohada jahonshumul meros qoldirgan zakovat-u qudrat sohibi Amir Temur so'zlariga hamohang tarzda kelajakda ushbu so'zlarni baralla aytish barchamizga nasib etsin: “Kimki qudratimizga shubha qilsa, bizning dovyurak farzandlarimizga boqsin!”

**O'ktam XO'JAYEV,**  
**Oygun RAMAZONOVA**  
Buxoro viloyati  
Shofirkon tumani



# Yangilangan Konstitutsiyada

## yashash huquqining kafolati



Har bir inson va uning hayoti jamiyatning ajralmas elementi sifatida ijtimoiy qadriyatdir. Shuning uchun inson o'limiga sabab bo'ladigan har qanday qilmish qonunda ijtimoiy xavfli jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Jinoyatlar ichida eng xavfli insonni yashash huquqidan mahrum etadigan

odam o'ldirish jinoyati hisoblanib, bu qilmish g'ayriqonuniy tarzda bir kishini ikkinchi kishi tomonidan qasddan hayotdan mahrum qilish, deb tushuniladi.

Ta'kidlash lozimki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoyat javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Konstitutsiya asosida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi insonlarning ijtimoiy sifatleri yoki har qanday biologik xususiyatlarga ega bo'lishidan qat'i nazar, ular sog'lig'ini saqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Har bir inson, u yosh go'dakmi yoki qariyasi, jismonan sog'lom yoki nogironmi, aqli raso yo noraso bo'lishidan qat'i nazar, uning hayoti va sog'lig'i eng oliy qadriyat ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

Jinoyat kodeksining 97-moddasida qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, u jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirishini anglatadi. Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i bebaho ne'mat hisoblanadi va uning bu ne'matlardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia hisoblanadi. Inson yashar ekan, hayotdan, uning ne'matlaridan bahramand bo'lib yashashga intiladi, hayotdan mahrum qilingan shaxsning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Insonning sog'lig'iga zarar yetkazilishi unga jismoniy, axloqiy, ruhiy azoblar berib, hayotiy faoliyatini cheklab qo'yadi.

Jinoyatchi tomonidan insonning boshqa huquq va erkinliklari buzilishining shaxs uchun ijtimoiy xavfli hayotdan mahrum etishdan kam bo'lmagan xavfni tug'diradi.

Zero Jinoyat kodeksining normalariga asosan, qasddan boshqa kishini hayotdan mahrum qilish odam o'ldirish deb e'tirof etiladi. Qasddan odam o'ldirish jinoyatining obyekti o'zga shaxsning hayoti hisoblanadi. Jinoyat qonuni barcha odamlarning hayotini bir xilda himoya qiladi. Shuning uchun yoshni ham, keksani ham, sog'lom odamni ham, bemorni ham hayotdan huquqqa xilof ravishda mahrum etish odam o'ldirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida evtanaziya taqiqlanadi.

Jinoyat kodeksida hayotga tajovuz qilish natijasida o'limga sabab bo'lgan jinoyatlar qilmishning huquqiy mohiyati, ijtimoiy xavfli darajasi va xarakteridan kelib chiqib, sodir etilgan har bir jinoyatga alohida javobgarlik belgilanishi ko'zda tutiladi.

“Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini rivojlantirish sohasidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'lim jazosini qo'llash sohasining bosqichma-bosqich kamayib borib, O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshirilgan jarayonning muhim yo'nalishi bo'ldi. 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan Jinoyat kodeksida dastlab 13 ta moddada o'lim jazosi nazarda tutilgan edi. 1998-yil 29-avgustda birinchi chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 12-sessiyasida o'lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar soni JKda 8 tagacha qisqartirildi, ya'ni o'lim jazosi tariqasidagi jazo Jinoyat kodeksining yana 5 moddasidan chiqarib tashlandi. 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Unga muvofiq, jazo sifatida o'lim jazosi nazarda tutilgan moddalar ro'yxati 4 taga qisqartirildi. Xususan, o'lim jazosi JKning 118-moddasi to'rtinchi qismidan, 157-modda birinchi qismidan, 242-modda birinchi qismidan, 272-modda ikkinchi qismidan chiqarib tashlandi. 2003-yil 12-dekabrda ikkinchi chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n uchinchi sessiyasida o'lim tariqasidagi jazo yana ikki turdagi jinoyatdan (*JK 151-moddasi ikkinchi qismi, 153-moddasidan*) chiqarib tashlandi.

Insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsipi va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida”gi farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1-yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etildi. Mazkur holat 2007-yil 11-iyulda qabul qilingan “O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan mustahkamlab qo'yildi.

Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarining amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiyada 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo turi bo'lib, u faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning alohida xususiyati uning quyidagilar uchun belgilanishida namoyon bo'ladi:

- a) og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish (*97-m. 2-q.*);
- b) terrorizm (*155-m. 3-q.*).

Jazoning alohida xususiyati qonun umrbod ozodlikdan mahrum etishni tayinlashga yo'l qo'yadigan jinoyatlar soni amalda nihoyatda cheklangani

bilan bog'liq. O'zbekistonda bunday jinoyatlardan faqat yuqorida keltirilgan ikkita nazarda tutilgan.

Ushbu masalaning xorijiy mamlakatlarda qonun bilan tartibga solinishini qiyoslaganda shuni bilish muhimki, Yaponiya, Koreya, XXR, Fransiya, GFR, Avstriya, Polsha, Shveysariya, Gollandiya, Daniya, AQSh singari mamlakatlarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni qo'llashda shaxslarni toifalar bo'yicha cheklash qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Boshqa davlatlarda (*Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'istonda*) ham bu turdagi jazoni faqat erkaklarga nisbatan qo'llashga yo'l qo'yiladi, ammo yosh doirasi 18 yoshdan

60 yoshgacha tarzida kengaytirilgan. Ukrainada bir umrga ozodlikdan mahrum qilishni 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollarga qo'llashga yo'l qo'yiladi, ammo jinoyat sodir etish paytida yoki hukm chiqarilayotgan vaqtda homilador bo'lgan ayollarga istisno qilinadi. Moldovada bu jazo voyaga yetmaganlar va ayollarga qo'llanilmaydi. Gruziyada 18 yoshdan katta, ammo 60 yoshdan oshmagan ayol va erkaklarga qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga “O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi” degan mazmundagi qism kiritilishi nazarda tutiladi.

Shu o'rinda ko'pchilikda “Bizda shundoq ham o'lim jazosi bekor qilingan-ku, nega endi o'lim jazosini man etish haqidagi qoidani Konstitutsiyaga kiritish kerak?” degan haqli savol tug'ilishi tabiiy.

Gap shundaki, o'lim jazosining man etilishi oddiy qoida emas. Bu insonning hayotiga, uning yashash huquqini so'zsiz kafolatlashga oid eng muhim qoida hisoblanadi va bu qoida, ya'ni insonning yashash huquqi kafolatlari albatta Konstitutsiya bilan mustahkamlanishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimizda sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi. Jinoiy jazolarni liberallashtirishda jazoning og'irligi emas, balki javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanishiga alohida e'tibor beriladi. Shu sababli jinoiy jazolarning erkinlashtirilishida, shubhasiz, o'lim jazosining bekor qilinishi alohida ahamiyatga ega.

**Muhammadjon ALIMOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Jamoat xavfsizligi**  
**universiteti dotsenti**



“Men yo‘g‘imda Kobulni siz idora etgaysiz, begim!” “...Kobul mening xos shahrim, – deb davom etdi Bobur. – Uni hargiz o‘g‘illarga bermasmen, faqat sizga topshirib ketgaymen!”

“Yulduzli tunlar”ni o‘qiyotib, mana shu o‘tli jumalarga kelganda, to‘xtayman. Titrab ketaman. O‘ylanaman. Shoh Bobur Hindiston sari otlanayotganda Humoyun Mirzo, balog‘at yoshidagi Komron Mirzo va Askariy kabi farzandlari, Qosimbek qavchindek ishonchli sarkardalari bo‘la turib, Kobul boshqaruvini aynan Mohimbegimga ishonib topshirishni ma‘qul ko‘rsa-ya! Bu muhabbatning belgisimikan? Yo‘q. Ziyarak podsho davlat ishlarini hissiyotlarga tayanib amalga oshirmasligi aniq. Bu ayolni nafaqat yor, balki adolatli siyosatdon va oqila rahbar sifatida tan olish, aslida. Malika uning qarorini rad qildimi, o‘z kuchidan ishtiboh sezdimi, degan xavotirda yana asarga yuzlanaman. Xayriyat, javob kutilganidek:

– Hazratim, sizning ulug‘ ishonchingiz mening tanimga yangi bir jon ato qildi!”

Vo ajab, ey xalqim, qanday buyuk ajdodlaring bor-a?!

Tarix guvoh, Amir Temur saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda Bibixonimning oqilona maslahatlariga ehtiyoj sezgan. Birgina misol, Eronga yurish paytida Isfahonni uzoq qamalda ushlab turgan sohibqiron qo‘shinni oziq-ovqat bilan ta‘minlash uchun mablag‘ga ehtiyoj sezadi. Saroymulxonimga maktub yo‘llab, xazinadan oltin yuborishini buyuradi. Bibixonim xabarni o‘qib, uning orqasiga “Ulug‘ amirim, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?” deb yozib yuboradi. Sohibqiron gap nimada ekanligini fahmlab, muammoni yechish chorasini ko‘radi. Lashkargohda so‘ygan qo‘y, qoramol, ot, tuya suyaklarini yig‘ib, unga tamg‘a bostiradi. Va pul o‘rnida muomalaga chiqaradi. Zakiy ayolning bir jumla so‘zi bilan Amir Temurning ham tafakkur kuchi, ham jangovarlik shijoati birlashib, shahar egallanadi.

Katta leytenant Gavharoy To‘lqinova kabi egniga harbiy libos kiygan ayollarni ko‘rib, Temuriy malikalarning avlodi davom etayotganligiga ishonasan kishi. U umrini yurt himoyasiga tikkan jasur qizlardan. Gavharoy hozirda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarkibida guruh komandiri lavozimida xizmat qilmoqda.

U bilan suhbatimiz davomida anglaganlarim: hali 30 ga ham kirmagan tengdoshimni qiyinchiliklar chiniqtirgani, ma‘naviy zarbalar nishonga olgan qalbiga jismoniy mashqlar

# FARG‘ONANING GAVHAR QIZI



malham bo‘lgani, onasidan yetim qolganda hatto tili chiqmagan, bir paytlar o‘zi himoyaga muhtoj bo‘lgan go‘dakning bugun ona yurt xizmatiga azm-u jahd qilgani – bularni jasorat, matonat deb atagim keladi. Qaddi baland, kelishgan, dovyurak, so‘zi-yu ko‘zi o‘tkir, bir so‘zli ayolga qarab, dovyurak To‘maris ko‘z oldimda gavalandi.

Yurtni himoya qilish uchun faqat jismoniy kuchning o‘zi kamlik qiladi. U, avvalo, bunga ruhan tayyor bo‘lishi kerak. Gavharoyni sinovli yillarda toblangan iroda, tushkunlikka tushgan paytlarida suyagan sabr, chidam, temir tartib-intizom yurt himoyasi uchun tayyorlagandek, nazarimda.

– Ayol bo‘la turib ham Vatanni himoya qila olish baxt, – deydi u. – Go‘daklarning to‘yib uxlashiga, yoshi ulug‘larning xotirjam yashashiga hissa qo‘shayotganimdan faxrlanaman. Sovuq nima, issiq nima, kecha-yu kunduz nima – shu tinch hayot uchun hamma narsaga tayyorman.

Ey Farg‘onaning Gavhar qizi, mushtingdan-da katta

yuragindan, shamollarga erk bermagan tim qora sochlaringdan, qo‘rquvni ezg‘ilab-ezg‘ilab borayotgan mardona qadamlaringdan jasorat, shiddat to‘kiladi! “Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib, sirdan mayin jilmaygan ayol” senmiding, ey yurt himoyasi uchun otlangan yangi davrning dilbari? Sening fikrlaringni tinglab, ayollarga nisbatan ojiza, mushtipar, mushfiq degan sifatlashlarni qo‘llagim kelmaydi.

Gavharoy suhbat so‘ngida quyidagi fikrlarni yozishimni iltimos qildi.

*Har dushanba, tong qorong‘isi, odatga ko‘ra, Vatani himoyachilari saf yig‘inida bo‘ladi. Shunda bir shior jimjit sukunatni yengib, kengliklar uzra jarang sochib yoyiladi: BURCH... SADOQAT... JASORAT...*

Bu – Milliy gvardiyaning shiori. Bu – Gavharoyning shiori. Oddiy ayolni himoyachiga aylantiradigan, jismi-yu ruhiga yengilmas kuch beradigan muqaddas shior bu.

Aytganicha, Gavharoyning ayollik baxti haqida bir og‘iz bo‘lsa-da yozmasam bo‘lmas. U yangi kelinchak. Ne baxtki,

turmush o‘rtog‘i ham harbiy. Bir-birini saflarda ko‘rgan. Ko‘zlaridan orzu-niyatlarini o‘qigan. Maqsad bir bo‘lganidan keyin bir-birini tushunish ham oson bo‘ladi, deyishadi-ku. Ularning maqsadi aniq: yurtni himoya qilish, osuda hayotni saqlash. Uyda ham, xizmatda ham bir-birini qo‘llaydigan, asraydigan ikki yurt himoyachisi Vatani tinchligi yo‘lida bir butunga aylangan bo‘lsa, ne ajab. Uning quvonch-u shodlik toshib turgan katta-katta ko‘zlariga qarab, chin sevgi, sof muhabbat asosiga qurilgan oilaning baxtidan ko‘nglim to‘ldi. Ko‘chalarni to‘ldirib o‘ynab yurgan bolalarim, rizqini terib, oilasiga shoshilayotgan aka-ukalarim uchun, har kuni to‘y, bayram qilayotgan qadrdonlarim, erta tongni osuda qarshi olgan ota-onalarim uchun senga ta‘zim qilaman, yurtning jasur qizi – Gavharoy!

**Go‘zal OXUNOVA,**  
“Farg‘ona haqiqati”  
gazetasi bo‘lim mudiri

## TA‘LIM

# HARBIY SOHADA MATEMATIKANING O‘RNI

Yurtimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lgani bois bu qadimiy va tabarruk zamindan ko‘plab buyuk mutafakkirlar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqanligi butun dunyoga ma‘lum va mashhurdir.

Buyuk mutafakkirlarning ijodi va ijtimoiy-siyosiy qarashlarida adolat g‘oyasi muhim o‘rin egallagan. Zero ular dunyoning obodligi, har qanday mamlakat va jamiyat tinchligi, taraqqiyoti va yuksalishining tub negizida adolat turishini yaxshi anglab yetganlar va o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida unga amal qilganlar.

Ana shunday buyuk mutafakkirlardan biri “Donishmandlik uyi” (*Baytul hikma*)da ijod qilgan, “Aljabr va almuqobala” asariga asos solgan o‘zbek matematika olimi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydir. Uning inson va jamiyatdagi tutgan o‘rni, adolatli jamiyat qurish, ijtimoiy birdamlik, komil inson, odob-axloq va ta‘lim-tarbiya, to‘g‘risidagi ko‘plab ilg‘or fikrlari asrlar osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, bugungi kungacha milliy o‘zligimizni anglash, millatlararo tinchlik-totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qilib kelmoqda. Shu bois o‘zbek xalqi ma‘naviy

olamining porloq quyoshi va barcha turkiy xalqlarning g‘urur-iftixoriga aylangan.

Shuni inobatga olgan holda, milliy harbiy kadrlarni tayyorlashda buyuk mutafakkir olimlarning ilmiy meroslaridan keng foydalanib, kelinmoqda. Ularning tajribasi Qurolli Kuchlar akademiyasida ham o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ushbu dargohda ta‘lim uchun yaratilgan sharoitlar hamda amalga oshirilayotgan ta‘lim jarayonlari kursantlarni turli fanlar bo‘yicha xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan olimpiadalarda faxrli o‘rinlarni egallashlari uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, akademiya kursantlar jamoasi oliy matematika fani bo‘yicha 2019-yil 20–25-aprel kunlari Qozog‘iston Respublikasi Karaganda shahrida tashkil etilgan V xalqaro olimpiadada faxrli 3-o‘rinni, 2021-yil 21–26-mart kunlari Rossiya Federatsiyasi Balashixa shahrida bo‘lib o‘tgan VI xalqaro

olimpiadada faxrli 2-o‘rinni, 2023-yil 16–21-aprel kunlari Qozog‘iston Respublikasi Olmaota shahridagi VII xalqaro olimpiadada faxrli 2-o‘rinni egallab, mamlakatimiz bayrog‘ini yuqori ko‘tarib kelishgani Al-Xorazmiyning avlodidan ekanligiga yaqqol dalildir.

Hozirgi kunda Qurolli Kuchlar akademiyasida 120 soatlik dastur asosida matematik ta‘lim amalga oshirilmoqda. Matematika fanini yanada mustahkamlash, Al-Xorazmiydek buyuk mutafakkirlarni yetishtirish maqsadida qo‘shimcha ravishda mustaqil ta‘lim soatlari tashkil etilgan va “Matematika bilimdoni” to‘garaklarida oliy matematika chuqurlashtirilgan tarzda o‘rgatilmog‘da.

Ma‘lumki, matematika oliy harbiy ta‘lim muassasalarida umumiy ta‘limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki bo‘lajak ofitserlarning harbiy kasbiy tayyorgarligi oliy matematika bo‘yicha nazariy

va amaliy bilimlarni puxta egallashiga bevosita bog‘liq. Ushbu fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar ofitserlarga maxsus ta‘limni davom ettirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va tobora murakkablashib borayotgan harbiy texnikani mustaqil ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Oliy harbiy ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladigan matematik ta‘limning asosiy vazifasi esa harbiy fanlarni o‘rganishda zarur bo‘ladigan matematik bilim va ko‘nikmalarni, mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirishdan iboratdir.

Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlari bilan matematika fanidan olib borilayotgan tizimli ishlardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkin, matematika hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan aniq fanlardan biridir. Qolaversa, matematika harbiy sohada juda muhim o‘rin tutadi. Tinchlik va urush davrida ko‘pchilik insonlar hayoti olimlar tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarning to‘g‘riligiga bog‘liq bo‘ladi. Aynan ularning kashfiyotlari tufayli bizdan ham son, ham texnik jihatdan ustun bo‘lgan munosib dushmanni mag‘lub eta oladi.

**Istam RAXMONOV,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi Tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, dotsent



# Vatan himoyasi – muqaddas burch, armiya esa hayot maktabi

Mudofaa vazirligiga qarashli Zangiota tumanida joylashgan harbiy qismda o'z yigittlik burchini o'tayotgan askarlarning bir kunlik hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Muddatli harbiy xizmatni boshlaganiga hali bir yil to'lmisdan o'zlariga bo'lgan ishonch ortganligini ularning safda qadam tashlashlaridan ham anglab olish qiyin emas. Zero maqsadi aniq bo'lgan insonning bosayotgan qadamlarida shaxdamlik, nigohlarida esa shijoat bo'lishi tabiiy.



Muallif suratga olgan

Saf maydonida bir chiziqqa tizilgan yurt o'g'lonlari mashg'ulot rahbarining "O'nggal" va "Qadam bos!" buyrug'i bilan amaliy mashg'ulotlarni boshlab yubordi. Dastlab qurol bilan saf maydonida bir tekisda yurib o'tgan bo'lsalar, keyin qurolsiz va jangovar qo'shiq bilan marsh yurdilar. Qadamlarning bir xilda "gurs-gurs" deya ovoz chiqarishi, qo'shiq ritmini ushlab turardi. Vatanni tarannum etayotgan jangovar qo'shiqni ijro etayotgan askarlarda jangovarlik yuqori nuqtaga chiqqan edi.

– Askar bo'lib Vatanim tinchligi uchun o'z hissamni qo'shaman deya niyat qilib yurgan kezlirim taassurotlari umuman boshqacha edi, – deydi oddiy askar Saidali Murodaliyev. – Mana, o'n oydan buyon xizmat faoliyatimni Zangiota tumanidagi harbiy qismda o'tayapman. Bu yerda yaratilgan sharoitlar tasavvur qilganimdan ham ortiqroq ekan. Eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sinf xonalarida bilim va tajribalarimizni o'rtiraymiz. Outsorsing tizimidagi zamonaviy oshxona, barcha qulayliklarga ega bo'lgan yotoqxonalarni o'z ko'zi bilan ko'rmagan inson ishonishi qiyin. Hatto ota-onam ham armiyadagi sharoitlarni televideniye orqali ko'rsatishganida ishonmasdan mendan so'rashgan edi. Mana shunday zamonaviy armiyada xizmat qilish bilan bir qatorda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun ham tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlari yaratilgan. Universitet va maktablarda o'z sohasining mutaxassislari haftada 3 marta bir soatdan qo'shimcha darslar o'tadi. Bir yillik muddatli harbiy xizmatni o'tash jarayonida ingliz tili, matematika, kimyo va biologiya kabi fanlardan olgan bilimlarimiz mustahkamlanishida juda kerakli omil bo'lib hisoblanadi. Armiyaga kelgunimgacha bo'lgan rejalarim boshqacha edi. Hozir esa faoliyatimni harbiy xizmat bilan davom ettirishni niyat qildim. Kelajakda yetuk aloqachi ofitser bo'lishni maqsad qilib qo'ydim.

Askarlarning keyingi mashg'uloti harbiy-tibbiy ko'nikma hosil qilishda birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatgandan iborat bo'ldi. Bunda yarador safdoshiga yordam ko'rsatgandan keyin zarar yetkazmasdan uni xavfsiz hududga olib o'tishda yo'l qo'yilgan xatolar mashg'ulot rahbari tomonidan to'g'rilandi.

– Harbiy qismning 2019-yil zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etilishi natijasida harbiy xizmatchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, bir vaqtning o'zida yuzlab harbiy xizmatchilar amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'tash imkonini mavjud 3 qavatli o'quv binosi, yotoqxona, zamonaviy sport majmuasi, madaniyat markazi, 700 kishini sig'dira oladigan zamonaviy oshxona qurildi, – deydi podpolkovnik Yodgor Murodov. – 5 ta muhim tashabbus asosida harbiy qismda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun sportning shaxmat, shashka, futbol, badiiy gimnastika va ko'pkurash turlari bo'yicha to'garaklar yo'lga qo'yilgan. Asosiysi, to'garak rahbarligiga muddatli harbiy xizmatchilar orasidan saralab olinganlar jalb etilgan. Armiyaga kelgunga qadar sportning qaysidir yo'nalishida muayyan yutuqlarga erishgan sportchi askarlar to'garakda rahbar sifatida faoliyat yuritadi. Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning zamonaviy bilim va ilg'or ko'nikmalarini egallashi, o'z ustida muntazam ishlashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Bundan tashqari, jismoniy va jangovar tayyorgarlik, psixologik hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi mashg'ulotlar bo'lib o'tdi. Harbiy qismda berilgan nazariy bilimlarning shu kunning o'zida amaliyotining ham o'tkazilishi askarlar ko'nikmasining mustahkamlanishi garovi bo'lib xizmat qilmoqda.



Sherzod SHARIPOV,  
 "Vatanparvar"



# YURTNI QO'RIQLASH — SHARAFLI BURCH



ingliz tiliga qiziqishi yuqori edi.

– Har yakshanba kuni “Vatanparvar” ko'rsatuvi efirga uzatiladi. Men bu ko'rsatuvning har bir sonini qoldirmay ko'rar edim, – deydi Jahongir Boltayev. – Yurtimiz osmonida samolyot va vertolyotlarni boshqarib, mamlakatimiz tinchligini qo'riqlayotgan samo lochinlarini ko'rib, harbiy uchuvchi bo'lishni orzu qilardim. Parashyut bilan sakrayotgan harbiylarga havas qilardim. 9-sinfni bitirish arafasida otam: “O'g'lim, ta'limni maktabda davom ettirasanmi, yoki kollejga o'tasanmi?” deya so'radilar. Men harbiy uchuvchi bo'lmoqchi ekanimni aytdim. Shunda otam biroz xayolga toldilar, biroq hech nima demadilar. Ertasi kuni otamning ikkinchi soat sinfimizda darsi bor edi. Qo'ng'iroq chalingach, otam sinfdan chiqayotib: “Jahongir darslaring nihoyasiga yetgach, mening oldimga chiq”, dedilar. Dars tugagach o'qituvchilar xonasiga bordim. Otam portfelini olib, “ketdik” dedilar. Yo'lbo'yi qayerga ketayotganimizga qiziqsam-da otam gapirmaganlari uchun so'ramadim. Bir bino oldida to'xtadik. Peshtoqiga mudofaa ishlari bo'limi deb yozilgan ekan. U yerga kirgach otam o'zlarini tanishtirib, meni harbiy uchuvchi bo'lish orzusida ekanim,

Koson tumanida tarix fani o'qituvchisi Bahodir akani ko'pchilik yaxshi taniydi, hurmat qiladi. Zero el orasida yaxshi nom chiqarib, hurmat qozonish uchun kishida bir qator fazilatlar mujassam bo'lishi talab etiladi. Shulardan biri – o'z sohasining bilimdoni bo'lish.

Uzoq yillar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan Bahodir aka hamda Komila opa 5 o'g'lini jamiyatimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan insonlar etib voyaga yetkazishdi. Ularning aksari iqtisod va ta'lim sohasini tanlagan bo'lsa, ikkinchi farzand Jahongir Boltayev esa aka-ukalaridan farqli ravishda harbiylikni tanladi.

1997-yilda Koson tumanidagi 6-umumta'lim maktabiga ilk bor qadam qo'ygan Jahongir ta'limning dastlabki yillaridayoq o'zining bilimga chanqoqligi bilan sinfdoshlaridan ajralib turardi. U ulg'aygan sari fan sirlarini puxta egallashga bo'lgan ishtiyoqi yanada kuchayib bordi. Umumta'lim fanlari orasida matematika, fizika, tarix va

kursanti bo'lish uchun qanday imtihonlardan o'tishim kerakligini so'radilar. Mudofaa ishlari bo'limi bizga harbiy aviatsiya bilim yurti abituriyentlari uchun imtihon talablarini batafsil tushuntirdi.

Yo'lda otam: “O'g'lim, g'oyat yuksak maqsadni ko'zlabсан. Kirish sinovlari universitetlarnikidan murakkab. Qabul kvotasi ham kam. Ammo chin ixlos bilan kirishsang, maqsadingga erishasan”, dedilar. Shundan so'ng tayyorgarlikni boshlab yubordim. Otam meni doimiy nazorat qilib, qo'llab-quvvatladi. Bilimimni mustahkamlashim uchun qo'shimcha darslar oldim.

## MAQSAD SARI DADIL QADAM

Insonlarning bolalikdagi orzulari ro'yobga chiqishida oila a'zolarining madadi muhim ahamiyatga ega. Bahodir aka o'g'lining imtihon tarkibiga kiritilgan fanlar bo'yicha eng yaxshi o'qituvchilardan saboq olishi uchun imkoniyat yaratdi. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishni o'zi nazorat qilib bordi. 2008-yili 11-sinfni bitirgach, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtiga hujjat topshirdi.

Nomzodlarni individual-psixologik o'rganish, jismoniy tayyorgarligini baholash, axborot-texnologiyalarini bilish darajasi, belgilangan

umumta'lim fanlari bo'yicha test sinovlaridan bosqichma-bosqich o'tgan Jahongir katta hayajon bilan mandat natijalarni kutdi. Uning mehnatlari zoye ketmadi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, kursantlar safiga qabul qilindi. Bu yutuq barchani quvontirdi.

Besh yil davom etgan harbiy ta'lim mobaynida kursant Jahongir Boltayev o'z Vatani va xalqiga sodiq, intellektual rivojlangan, tahliliy va tanqidiy fikrlaydigan, murakkab vaziyatlarda tezda baholash qobiliyatiga ega, jangovar xizmat, taktik vaziyatlarda tezkorlik bilan qarorlarni mustaqil qabul qilishga qodir, dunyoqarashi keng, yuksak ruhiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega ofitser, haqiqiy yurt posboni bo'lib yetishdi. Oila a'zolari va ustoz-murabbiylari ishonchini oqlab, bilim yurtini imtiyozli diplom bilan tugatdi.

## XULOSA

Insonlar bolaligida juda ko'p orzular qiladi. Turli kasblarga qiziqib, xayollar suradi. Orzuning ro'yobga chiqishi uchun bugun bajarilishi kerak bo'lgan vazifani ertaga qoldirmaslikdir. Yillar o'tadi, bolalikdagi orzular, xayollar armonga aylanadi. Afsuski, kam sonli odamlargina yoshligida havas qilgan kasbining sohibiga aylanadi. Ayniqsa, harbiy uchuvchilikdek kuchli bilim, yuksak iroda va matonat, jismoniy va ruhiy tetiklik talab etadigan kasblarni egallashning o'ziga yarasha mashaqqatlari bor. Jahongir bolalikdagi orzusini ro'yobga chiqargan va katta ofitser darajasigacha yetib kelgan baxtli insonlardan biri.

**Jobir ISMATILLOYEV,**  
 Respublika Ma'naviyat va  
 ma'rifat markazi  
 Koson tumani bo'linmasi  
 mutaxassisi

## MA'NAVIYAT

# AJDODLAR TAJRIBASIDA FARZAND TARBIYASI



Farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri mamlakat kelajagi bilan chambarchas bog'langandir. Zotan, insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini asosan uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga halokatdir. Shuning uchun qadim-qadim zamonlardan buyon Sharqda farzand tarbiyasiga katta e'tibor berilishi bejiz emas.

Farzand tarbiyasi hamisha muhim va g'oyatda murakkab vazifa bo'lib kelgan. Bu xususda qancha kengashmaylik, mavzu va bahslarning adog'i ko'rinmaydi. Jamiyatda duch kelinayotgan juda ko'p muammolarning bir uchi ana shu tarbiya atalmish nozik masalaga borib taqaladi. Shu bois bolani murg'akligidan to'g'ri yo'lga boshlash, qiziqishlarini shakllantirib borish, tarbiya jarayonining eng to'g'ri va ma'qul yo'lidir. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kamolotiga asosan bolalikda poydevor qo'yiladi. Yaxshi, go'zal tarbiya olgan bolalar ulg'aygach, xush axloqli, go'zal odobli insonlar bo'lib yetishadi va saodatga erishadi. Tarbiyasi bo'sh yoki yomon tarbiya ko'rgan bolalar esa axloqsiz, beodob kimsalar bo'lib ulg'ayadi va bundaylardan jamiyat katta zarar ko'radi. Tarbiya borasidagi mana shu haqiqatni o'z vaqtida anglab, farzandlarini komil insonlar qilib ulg'aytirishga intilgan ajdodlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur bo'ladi.

Tarixiy ma'lumotlarda keltirilishicha, shoh Bobur o'z

farzandlarining ta'lim-tarbiyasi haqida hamisha o'ylab, ularni o'qish va o'rganishga targ'ib qilar ekan. Shuning uchun ham uning farzandlari ham tarixda chuqur iz qoldirgan shoir, tarixchi, ilm-u san'atni yaxshi o'rganib, o'zlashtirgan insonlar bo'lib yetishdi. Otabobolarining izidan borib, atoqli shoir, adib va olimlar sifatida ilm-u san'at rivojiga katta hissa qo'shib keldilar. Zero Bobur farzandlarini har tomonlama barkamol ulg'aytirishga intilgan.

Bobur “Mubayyin” risolasini Humoyun va Komronga diniy masalalarni o'rgatish uchun nazmda yozadi. Boburning Humoyun va Komronga yozgan maktublari ham shu mavzuga qaratilgan. Bobur farzandlarini diyonatli, ilm-fazilatli bo'lib o'stirishni o'zining otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan, ularni o'qish-o'rganishga targ'ib qilib, imlo va insho xatolarini to'g'rilab, bexato, sodda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan.

**Podpolkovnik  
 BOTIR SOBIROV,**  
 Qurolli Kuchlar  
 akademiyasi o'qituvchisi



## SHOHSUPA

(xabarlar)



## VELOSPORT




Portugaliyada velosport bo'yicha "UCI" musobaqalar taqvimidan joy olgan "Troféu Internacional de Pista – José Bento Pessoa" xalqaro turniri o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston velosporti terma jamoasi a'zosi Margarita Misyurina "Scratch" yo'nalishida Yevropaning mahoratli velosipedchilarini ortda qoldirib, oltin medalni qo'lga kiritdi hamda "Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlariga yo'llanma olish uchun qimmatli reyting ochkolariga ham ega bo'ldi.

## BELBOG'LI KURASH



Rossiyaning Yekaterinburg shahrida erkaklar va ayollar o'rtasida belbog'li kurash bo'yicha jahon kubogi bellashuvlari bo'lib o'tdi. Bosh murabbiy Shavkat Mirzaqulov boshchiligidagi terma jamoamiz jahon kubogi bahslarining erkin va klassik yo'nalishlarida 2 tadan oltin va kumush hamda 17 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoahisobida 3-o'rinni egalladi.

## SHAXMAT



Hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov Kanadaning Toronto shahrida dunyoning eng kuchli 8 nafar shaxmatchisi ishtirokidagi umumiy mukofot jamg'armasi 500 ming AQSh dollaridan iborat "Champions Chess Tour Finals" turnirida ishtirok etdi. Shaxmatchimiz yarim finalgacha bo'lgan bahslarni muvaffaqiyatli o'tkazdi. Amerikalik Uesli Soga qarshi kechgan yarim final uchrashuvining 1-turida ham g'alabaga erishdi. Ammo keyingi ikki turda imkoniyatni boy berib qo'ldi va xalqaro turnirni 3-o'rin hamda 50 ming AQSh dollariga ega chiqqan holda yakunladi.

## OT SPORTI



Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatida ot sportining konkur yo'nalishi bo'yicha "Maxima Masters" xalqaro turniri o'tkazildi. Unda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ham ishtirok etdi. 135 sm balandlikdagi to'siqlardan sakrash dasturida ishtirok etgan hamyurtimiz Xurshidbek Alimjonov kumush medalni qo'lga kiritdi. Yevrosiyoliyo ligasi Gran-pri yo'nalishining bu yilgi g'olibi mazkur startda "Champions League" laqabli otida harakat qildi.

## PROFESSIONAL BOKS



Hamyurtimiz Murodjon Ahmadaliyev AQShning Arizona shtatida tashkil etilgan boks oqshomida meksikalik Kevin Gonsalesga qarshi 12 raund etib belgilangan navbatdagi jangini o'tkazdi. Chempionlik kamari uchun "eliminator", ya'ni saralash vazifasini o'tab bergan ushbu jangda hamyurtimiz raqibini uch marta "nokdaun" holatiga tushirgan holda muddatidan avval, ya'ni 8-raunda mag'lubiyatga uchratdi.

## PARA O'Q OTISH



BAAning Al-Ayn shahrida para o'q otish bo'yicha jahon kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi. Musobaqaning 50 metr masofaga to'pponchadan otish bo'yicha aralash dasturida ishtirok etgan hamyurtimiz Shahnoza Mamajonova barcha raqiblaridan meraganlik borasida ustunligini namoyish etib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Zero vakilimiz bundan avvalroq ushbu musobaqaning 10 metr masofaga to'pponchadan otish dasturida kumush medalni qo'lga kiritgan edi.

Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij – 2024" Olimpiadasi uchun litsenzion reyting ochkolarini jamg'arish davri yakunlangani va u orqali Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritgan sportchilar nomini e'lon qildi. Ular safidan yurtimizning ikki nafar taekvondochisi ham o'rin oldi. Xitoyning Usi shahrida esa taekvondo WT bo'yicha "Katta Dubulg'a" turniri o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolaridan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Jasur Jaysunov sovrindor bo'ldi.

## JAYSUNOV

## "KATTA DUBULG'A"

## TURNIRI SOVRINDORI



Asosiy negizi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillaridan iborat bo'lgan taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari uchun 2023-yilgi mavsum yakunlandi. Ta'kidlash joiz, taekvondochilarimiz mavsum davomida mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini turli musobaqalarda sinovdan o'tkazdi va o'z jamg'armalarini medallar bilan boyitdi. O'z navbatida, Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritish maqsadida reyting ochkolarini yig'ishda davom etishdi va yakunda bu o'z samarasini berdi.

Mavsum poyonida Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlari uchun litsenzion reyting ochkolarini jamg'arish davri yakunlanganini bildirdi va Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritgan sportchilar nomini e'lon qildi. Ular safidan O'zbekiston terma jamoasining, aniqrog'i Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining ikki nafar vakili – Ulug'bek Rashitov (-68 kg) va Svetlana Osipova (+67 kg) ham o'rin oldi. Qayd etish joiz, Olimpiada o'yinlari tarixida birinchi bor o'zbekistonlik taekvondochilar reyting orqali 2 ta yo'llanma sohibiga aylanmoqda. Shuningdek, taekvondochi qizlarimizni ham shu paytgacha reyting orqali yozgi Olimpiada o'yinlarida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etadigan sportchilar ro'yxatida ko'rmagandik. Armiyamiz sportchisi Svetlana Osipova ushbu yo'nalishda Olimpiada ishtirokchisiga aylangan dastlabki taekvondochi bo'ldi.

"Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlarida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etadigan sportchilar ro'yxatida MVSMning, o'z navbatida, mamlakatimiz terma jamoasining boy tajribaga ega taekvondochisi, ya'ni jahon chempionatlarining uch karra sovrindori, 2018-yilgi Osiyo o'yinlari g'olibi, 2018-yilgi Osiyo chempioni Nikita Rafalovichni ham ko'rishimiz mumkin edi. Chunki u ham Ulug'bek va Svetlana kabi mavsumni yuqori ruhda boshlab, reyting ochkolarini ulashladigan yirik turnirlardagi ishtirokini muvaffaqiyatli davom ettirdi va yil davomida reyting jadvalida doim yuqori pog'onalarni egallab

turdi. Biroq mavsum o'rtalarida olingan jarohat Rafalovichga pand berdi. Noyabr va dekabr oyida o'tkazilgan yirik turnirlarda esa endi jarohat asoratlaridan qutulib boshlagan sportchimiz dayanda o'zi xohlagan natijalarni qayd etolmadi.

Shu tariqa ikki taekvondochimiz "Parij – 2024" Olimpiadasi yo'llanmasini qo'lga kiritdi, qolgan sportchilarimizni kelgusi yilgi saralash musobaqalari kutmoqda.

2023-yil davomida terma jamoamiz a'zolari Fransiya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Misr, BAA kabi turli davlatlarda o'tkazilgan 20 dan ortiq nufuzli turnirlarda, "Katta Dubulg'a", Gran-pri turkumidagi musobaqalarda hamda Osiyo o'yinlarida ishtirok etishdi va 83 ta oltin, 54 ta kumush, 50 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Ayniqsa, noyabr oyida lordaniyaning Amman shahrida o'tkazilgan "Butunjahon taekvondo federatsiyasi prezidenti kubogi" uchun musobaqada vakillarimiz yuqori mahorat namoyish etishdi. Unda 5 nafar taekvondochimiz qatnashdi va yakunda barchasi shohsupaga ko'tarildi. Sovrindorlarning 3 nafari MVSM vakillari (Jasur Jaysunov, Nikita Rafalovich, Svetlana Osipova) bo'ldi. Muxlislar sportchilarimizdan dekabr oyida Angliya va Xitoyda o'tkazilgan yakuniy Gran-pri hamda "Katta Dubulg'a" turnirlarida ham yuqori natijalar ko'rsatishini kutishgandi. Biroq...

Angliyaning Manchester shahrida o'tkazilgan taekvondo WT bo'yicha yilning yakuniy Gran-pri turniriga 5 nafar sportchimiz bordi va barchasidan omad yuz o'girdi, ayrimlariga avvaldan

olgan jarohat asoratlari pand berdi. O'tgan hafta oxirida Xitoyning Usi shahrida o'tkazilgan taekvondo WT bo'yicha yilning so'nggi "Katta Dubulg'a" turnirida esa O'zbekiston terma jamoasi barcha yetakchi taekvondochilari bilan qatnasholmadi. MVSM vakillari Ulug'bek Rashitov hamda Svetlana Osipova kichik jarohat sabab ushbu turnirni o'tkazib yuborishdi. Usi "Katta Dubulg'a" sidda qatnashgan terma jamoamizning qolgan 10 nafar a'zosidan faqat MVSM vakili Jasur Jaysunov yakunda shohsupaga ko'tarildi. -80 kg vazn toifasida dayanga chiqqan taekvondochimiz 1-davra saralash bahslarini 1-o'rin bilan yakunlab, hal qiluvchi bosqichga yo'llanma oldi. Shundan so'ng u chorak finalda "Tokio – 2020" Olimpiadasi chempioni Maksim Xramsovni, yarim finalda eronlik Mirhoshim Hosseynini mag'lubiyatga uchratdi. Hal qiluvchi final bellashuvida esa Eron termasining boshqa bir vakili Mehran Barxordariga 1:2 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ldi va musobaqani kumush medalni qo'lga kiritish bilan yakunladi.

"Katta Dubulg'a" turniridan so'ng Xitoyning Usi shahrida taekvondo WT bo'yicha jamoaviy yo'nalishda jahon kubogi bahslari tashkil etildi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi kumush medalga sazovor bo'ldi. Jahon kubogi sarhisobiga ko'ra, "Parij – 2024" yozgi Olimpiada o'yinlari doirasida o'tadigan ko'rgazmali dasturda qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritgan terma jamoalar ro'yxati ham e'lon qilindi. Unga ko'ra, taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi ham ushbu dasturda qatnashish huquqiga ega bo'ldi.



# Vatan himoyasi

## va yurt obodligi yo'lida

Millat ertasi deb kuygan jonlarim,  
O'ziga bek bo'lgan alp sultonlarim,  
Vatan deb qad tutgan pok iymonlarim,  
Halovatdan kechgan fido insonlar.



Inson necha yoshda bo'lmasin, yuragida Vatanga muhabbat, ulug' maqsad va shijoat bo'lsa, oldinga qarab intilaveradi. Tinib-tinchimaydi, ezgu ishlarga bosh, yoshlarga o'rnak bo'ladi. Harbiy xizmatdan iste'foga chiqqan ko'p insonlarni bilaman. Ular orasida o'zidagi bor bilim va imkoniyatni mamlakatimiz rivoji, millat istiqboliga sarflayotganlar talaygina. Surxondaryoning Xayrobod qo'rg'onidagi harbiy qismda bo'lganimizda mana shunday shaxti baland insonlar bilan suhbatlashdik.



Iste'fodagi mayor Rustam Qobulov Mudofaa vazirligi tizimidagi bir qator harbiy qismlarda xizmat qilgan. U ayni fursatda Denov tumanidagi 24-umumta'lim maktabida yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan saboq berib kelmoqda. Turli soha vakillari o'z kasbiga turlicha yondashadi. Kimdir chin dildan mehnat qiladi, kimdir maosh uchun bazo'r ishga boradi, ya'ni kun o'tsa bo'lgani. Biroq bizning lavhamiz qahramoni el obodligi, yurt tinchligi, yosh avlodlar kelajagi yo'lida ilkidagi vazifasini sidqidildan ado etib kelayotgan zahmatkash insonlardan. Rustam aka ayni fursatda nafaqat o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bel bog'lagan ustoz, balki yurt obodligi, el dasturxonini to'kinligiga ulush qo'shib kelayotgan ishbilarmon tadbirkorlardan.

Keling, avvalo uning ustozlik maqomiga nazar tashlaymiz. Rustam Qobulov 24-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi – "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik otryadi rahbari sifatida faolligi bilan ajralib turadi. Maktabda, davlat va jamoat tashkilotlari hamda harbiy qismlarda o'tkaziladigan vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar va ko'rik-tanlovlarda o'quvchilari bilan ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan jonkuyar ustozlardan. "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik otryadining diplom va faxriy yorliqlar, qimmatbaho sovg'alarga ega bo'layotgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ustozning "O'zbekiston Qurolli Kuchlariga 30 yil" esdalik nishoni bilan taqdirlangani esa uning fidoyiligidan dalolat.

2023-yil boshida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Denov tumanidagi umumta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari – "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik otryadlari rahbarlari o'rtasida "Eng yaxshi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi" ko'rik-tanlovining tuman bosqichi o'tkazildi. Ushbu tanlovda 85 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Tanlov yakunlariga ko'ra, tumandagi 24-maktab ChQBT fani o'qituvchisi iste'fodagi mayor Rustam Qobulov birinchi o'rinni egallab, yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. Shuningdek, xizmat vazifasini bajarishdagi jonbozligi uchun O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Uning maktab bilan bog'liq faoliyati xususida uzoq to'xtalish mumkin. Biroq Rustam akaning tadbirkorlik bilan bog'liq ezgu ishlari ham tahsinga sazovor. U o'zi kabi nafaqadagi jonkuyar insonlarga bosh bo'lib, tumandagi tashlandiq joyga "Yoshlar markazi" qurishga jazm etdi. Ayni damda bu go'shada turli sport va til o'rgatish to'garaklari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, el dasturxonini to'kinligi uchun novvoylik va turli-tuman pishiriqlar tayyorlanmoqda. Albatta, bu aholi uchun yangi ish joylarining ochilishiga zamin yaratadi. Lavhamiz qahramonining asosiy rejaları esa hali oldinda. Uning o'zi bu haqda quyidagicha fikr bildirib o'tdi:

– Ayni damda non va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarishda olti kishi, tikuvchilik sexida besh nafar ayol ishlaydi. Oldimizga salmoqli rejalar qo'yganmiz. Ya'ni tikuvchilik sexini kengaytirib, yangi zamonaviy tikuv mashinalari sotib olish va ishchilar sonini o'ttiz nafardan oshirish. Shuningdek, go'zallik saloni, akfa va hunarmandchilik sexi hamda o'quv markazlarini yo'lga qo'yishga harakat qilyapmiz. Bularning barchasi shu go'shada istiqomat qilayotgan xalq manfaati, talab va istagini inobatga olib rejalashtirilgan.

Darhaqiqat, tadbirkorlarning asosiy maqsadi el ehtiyojini qondirish, yurt rivojiga ulush qo'shish. Umid qilamizki, xalqim va Vatanim deb, yonib-kuyib yashayotgan iste'fodagi mayor Rustam Qobulov tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ortga chekinmaydi. Oldiga qo'ygan ezgu maqsadini albatta amalga oshiradi.



## Vatanparvar yoshlar qanoti



Xayroboddagi harbiy qismda bo'lganimizda kutilmagan yangilikka duch keldik. "Qani endi, bu yangilik respublikamiz bo'ylab yoyilsa", degan o'y dilimni yoritib o'tdi. Mamlakatimizning chet hududlarida voyaga yetayotgan yigit-qizlar orasida Vatan himoyachisi bo'lishni orzu qiladiganlari talaygina.

Xayroboddagi harbiy qism komandirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi Erkin Maxmuradov mana shu ulug' orzu bilan o'sayotgan yoshlarni bir maqsadga birlashtirdi. 2018-yildan beri Denov tumani 67-umumta'lim maktabida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan o'quvchi-yoshlarga saboq berib kelayotgan Erkin aka dastlab harbiy sohaga qiziqqan 8-9-sinf o'quvchilaridan guruh tuzib, ularni "Temurbeklar maktabi"ga tayyorlashga qaror qildi. Ota-onalar jonkuyar ustozni qo'llab-quvvatlashdi, hatto bolalariga harbiy libos tiktirib berishdi. Erkin aka harbiy qism qo'mondonligi bilan kelishilgan holda guruh a'zolarini u yerga olib borar, harbiy hayot bilan yaqindan tanishtirardi. Vaqt o'tib, Erkin akada yangi maqsad tug'ildi, ya'ni harbiylikka ishtiyiqi baland 11-sinf o'quvchilarini oliy harbiy ta'lim muassasalariga tayyorlashga jazm etdi. Bundan ota-onalarning boshi ko'kka yetganini aytmaymizmi. Bu ezgu ishga iste'fodagi mayor Rustam Qobulov kabi jonkuyar ustozlar yelka tutdi. Shu tariqa "Janub qalqonlari" guruhi tashkil etildi. Ammo harbiy qismlarda o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun tegishli xat-hujjatlar tasdiqlanishi kerak, shubhasiz. Bu imkoniyat uzoq kutildi. Va nihoyat, joriy yilda maktab o'quvchilari va uyushmagan yoshlardan iborat "Janub qalqonlari" to'garagi a'zolariga harbiy qismlarda mashg'ulotlar o'tkazish uchun ruxsat berildi.

– Guruhimizga tumandagi o'n ikkita maktab o'quvchilaridan iborat 40 dan ziyod o'quvchi birlashgan, – deydi Erkin Maxmuradov to'garak haqida so'z yuritir ekan. – Ular darsdan bo'sh paytlari haftada uch kun harbiy qismga kelib, mashg'ulotlarda ishtirok etishadi. O'quvchilarga beshta fandan – ona tili, matematika, fizika, tarix va ingliz tilidan tajribali ustozlar saboq berishadi. To'garak a'zolarida harbiy xizmatchi bo'lish ishtiyiqi shu qadar kuchliki, har qanday ob-havoda o'ttiz kilometr yo'l bosib yetib kelishadi. Ishonamanki, ular Vatan va ustozlar ishonchini albatta oqlaydi.

To'garak a'zolariga ingliz tilidan saboq berayotgan Yulduz Abdullayeva, tarix fani o'qituvchisi Sherzod Pardayev o'quvchilarning harakati, bilim egallashi borasida iliq fikrlar bildirib o'tdi.

O'quvchilar Suhrobbek O'rolov, Komiljon Abdulqosimov harbiy uchuvchi bo'lishni maqsad qilgan. Ulug'bek Ikromov, Ilhombek To'rayev tankchi bo'lishga jazm etgan bo'lsa, Akbar Mingqobilov esa harbiy shifokorlar safida qad rostlamochi. To'garakdagi har bir o'quvchining oldiga qo'ygan ulug' maqsadi bor.

Quvonarli jihati, bunday to'garaklar ayni fursatda Termiz shahri va bir qator tumanlarda ham faoliyat yuritmoqda. Bu harbiy sohaga mehr qo'ygan necha yuzlab yoshlar uchun maqsad sari yo'naltirilgan imkoniyat eshiklaridir.





# QURUQ YO'TAL

## 50 XIL

# KASALLIK ALOMATI

Doimiy quruq yo'taldan azob chekish ahvolingizning yomonlashishiga sabab bo'ladi. Yoz-u qish, bahor va kuzda quruq yo'tal kishining tinkasini quritishi tayin. Ammo bu muayyan bir kasallik hisoblanmaydi, balki qo'zg'atuvchilar keltirib chiqaradigan refleksdir.



Aslida yo'talning asosiy sababi sovuq ob-havo, allergiya yoki boshqa kasalliklar bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli quruq yo'talga esa traxeit (nafas yo'li yallig'lanishi), faringit (tomoq shilliq pardasining yallig'lanishi), bronxit (bronxlar, nafas yo'llari yallig'lanishi) va pnevmoniya (zotiljam) sabab bo'lishi mumkin. E'tibor berayotgan bo'lsangiz, ayni shu kunlarda quruq yo'taldan aziyat chekayotgan insonlar ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Biz muammoning mana shu jihatini inobatga olib mazkur sahifada quruq yo'tal haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

**Izoh:** quruq yo'tal – balg'am chiqmaydigan yo'tal hisoblanadi. Balg'am yetishmovchiligi sabab quruq yo'tal tomoq og'rig'iga olib kelishi mumkin, bu, o'z navbatida, boshqa simptomlarni keltirib chiqaradi.

Quruq yo'tal o'tkir yoki surunkali bo'ladi. O'tkir yo'tal uzoq davom etmaydi, biroq surunkali yo'tal doimiy yoki muntazam ravishda qayta paydo bo'ladi.

O'tkir yo'tal odatda infeksiya yoki yuqori nafas yo'llarining tirnash xususiyati bilan bog'liq bo'ladi va bir necha hafta ichida o'z-o'zidan o'tib ketadi, surunkali yo'tal esa sakkiz haftadan ortiq davom etadi va turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi.

### SABABLARI

Nafas olish tizimining holati atrof-muhit va yomon odatlarga nisbatan ta'sirchan hisoblanadi. Masalan, xonada namlikning yetarli bo'lmasiligi, konditsionerdan doimiy foydalanish, chekish va noto'g'ri ovqatlanish ham bora-bora quruq yo'talni keltirib chiqaradi. Yana bemorning o'z salomatligiga nisbatan mas'uliyatsizligi tufayli uzoq muddatli quruq yo'tal paydo bo'lishi mumkin. Ya'ni shamollash asoratlari oxirigacha davolamaslik, o'zboshimchalik bilan davo choralarini ko'rish yoki kasallikning ilk namoyon bo'lishidayoq balg'am ko'chiruvchi vositalardan foydalanish ham yo'talning surunkali davom etishiga sababchi bo'ladi.

Quruq yo'talning noodatiy sabablari orasiga me'da shirasi kislotaliligi buzilishini ham kiritish mumkin. Bundan tashqari, quruq yo'tal yurak yetishmovchiligida ham kuzatiladi. Qizig'i shundaki, quruq yo'tal 50 dan ortiq kasallikka tegishli bo'lgan juda keng tarqalgan alomatdir, shuning uchun uzoq muddatli quruq yo'talning sabablari turli xil bo'lishi mumkin. Agar quruq yo'tal gripp yoki o'tkir respirator virusli infeksiya bilan og'riganingizdan keyingi bir haftadan ko'proq vaqt davomida sizni bezovta qilsa, shifokorga borishingiz kerak.

Avvaliga terapevt bilan maslahatlashing. Shundan so'ng u sizni LOR mutaxassisi, pulmonolog, kardiolog, nevrolog, gastroenterolog qabuliga yuborishi yoki darhol davolashni boshlashi mumkin. Quruq yo'talni mustaqil davolash haqida gap bo'lishi mumkin emas: bemor xavfli patologiyani rivojlanishini o'tkazib yuborishi yoki uning o'tishini yomonlashtirishi mumkin.

### TUZALISHGA QANCHA VAQT KETADI?

Quruq yo'talning og'irligi va davomiyligi uning sababiga bog'liq. Agar o'z vaqtida va to'g'ri davolansangiz yo'tal bir necha kunda to'xtashi mumkin. Biroq ba'zida quruq yo'tal uch, besh yoki hatto sakkiz haftadan ko'proq davom etadi. Agar yo'tal uch haftadan ortiq davom etsa, siz albatta shifokor bilan maslahatlashingiz kerak. Yo'tal kuchli ko'krak og'rig'i, nafas olish qiyinlashuviga sabab bo'lsa va qon bilan birga kelsa, zudlik bilan shifokor qabuliga borishingiz lozim bo'ladi.

Umuman olganda, yo'tal bilan birga keladigan har qanday yangi yoki yomonlashgan vaziyatlarni sezangiz, bunga bee'tibor bo'lmang: tezda shifokor huzuriga shoshiling. Yo'tal bilan kurashishda birinchi navbatda alomatning asosiy sababini aniqlash juda muhim.

### SAMARALI DAVO USULLARI

Ingalyatsiya yo'talni davolashning oddiy va arzon usuli hisoblanadi. Uni uy sharoitida ham amalga oshirish mumkin. Shifokorlar ko'pincha quruq va nam yo'talni davolash uchun ingalyatsiyani tavsiya qiladi. Birinchi holda, ingalyatsiya

shilliq qavatlarni namlaydi, bu bir muddat og'riqli xurujlardan xalos bo'lishga imkon beradi. Shu bilan birga, shilimshiq va balg'amning chiqishi yaxshilanadi, ya'ni muolaja samarali yordam bera boshlaydi. Ikkinchidan, nafas olish balg'amning ko'chishini faollashtiradi, tuzalish jarayonini tezlashtiradi.

Agar uyda ushbu jarayon o'tkazilishi kerak bo'lsa, bir nechta muhim qoidalarga e'tibor berish lozim. Birinchidan, ko'tarilgan tana haroratida ingalyatsiya tavsiya etilmaydi. Ikkinchidan, bug' harorati 30-40 darajadan oshmasligi kerak, o'ta issiq komponentlar shish paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, ingalyatsiya kasallikning birinchi alomatlarida, tomoq sohasidagi achishish boshlanishi va quruq yo'tal paydo bo'lishi bilanoq amalga oshirilsa, samarali bo'ladi. To'rtinchidan, iloji bo'lsa, nebulayzardan foydalaning, bu chuqur idish yoki choynak ichidagi issiq suv ustida nafas olishdan ko'ra oson va xavfsizroqdir.

### SHIMILADIGAN PASTILKALAR

Balg'amsiz bronxlar yo'talning yanada kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Yo'talni tezroq davolash uchun yo'tal avj olmasdanoq pastilkalar shimsangiz ayni muddao bo'ladi. Chunki ular tomoqdagi qichishish xususiyatini yo'qotadi, quruq shilliq pardalarni yumshatishga yordam beradi, shuningdek dorivor komponentlar tomoqni tinchlantiradi.

### TOMOQQA SEPILADIGAN SPREYLAR

Tomog'ingizni chayqashga yoki asalli choy tayyorlashga har doim ham vaqt topmasligingiz mumkin, shuning uchun sumkangizda doim sprey bo'lishi foydali. Chunki bu vosita ham tomoqni tinchlantirishga yordam beradi, viruslardan himoya qiladi.

### HAVO NAMLANTIRGICH

Havo namlantirgich yo'talni davolamasligi mumkin, biroq bu surunkali quruq yo'tal uchun juda foydali gadget. Uni ishlatish davomida tomoqdagi nafaqat kuchli quruqlik, balki o'tkir ta'm ham seziladi, namlagich havoning to'g'ri muvozanatini tiklashga yordam beradi, bu shilliq qavatga ham foydali ta'sir ko'rsatadi. U havoga namlik qo'shadi va ko'pincha tunda og'ir yo'tal tutganda, havo namlantirgich katta yordam berishi mumkin.

### XALQONA DAVO CHORALARI

Hech kimga sir emaski, iliq ichimliklar ichish tomoqni tinchlantirishga yordam beradi. Biroq ichimlikka asal qo'shsangiz, u yanada samarali bo'ladi. Ushbu suyuqlik yallig'lanishni kamaytiradi. Chunki u yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega.

Agar issiq ichimliklarni yoqtirmasangiz, shunchaki bir qoshiq asal iste'mol qilsangiz ham, u quruq yo'talni tinchlantirishga yordam beradi. Asalni uyquga yotishdan oldin

iste'mol qilsangiz, tezroq tuzalasiz. Biroq asal iste'mol qilganingizdan keyin yo'tal kuchayganini sezangiz, bu usuldan foydalanmang.

### LIMON

Asalning o'zi qanchalik foydali bo'lsa, asal va limonni issiq suvda aralashtirish quruq yo'tal alomatlarini yengillashtirishda foydali bo'lishi hammaga ma'lum. Limon tomoq og'rig'iga yordam beradi hamda immun tizimini mustahkamlaydi.

### BUZINA

Buzina flavonoidlar deb ataladigan tabiiy moddalarni o'z ichiga olgan ajoyib tabiiy vosita hisoblanadi. Ushbu meva shishni kamaytirish, yallig'lanishga qarshi kurashish va immunitet tizimini mustahkamlashi mumkin. Siz undan qaynatma tayyorlashingiz yoki choyga qo'shib ichishingiz mumkin.

### ERITMALAR

Ko'p hollarda quruq yo'tal tomoqda tirnash xususiyatini keltirib chiqarishi va yallig'lanishiga sabab bo'lishi mumkin, tuzli eritma bilan tomoqni chayish qichishishni yengillashtiradi, agar shu bilan yo'tal yengillashsa, dorixonaga borish shart emas. Bir stakan iliq suvga bir choy qoshiq tuzni soling va muntazam ravishda (kuniga kamida 3-5 marta) tomog'ingizni chayqang.

Iste'mol sodasi ham turli viruslar va mikroblarga qarshi kurashda samarali vositadir. Shu tufayli u shamollashni davolashda ingalyatsiya uchun dezinfeksiyalash vositasi sifatida ishlatiladi. Bu eritma ayniqsa tomoq og'rig'i uchun samarali hisoblanadi. Buning uchun 1 choy qoshiq soda bir litr issiq suvda suyultiriladi va 10 daqiqadan ko'proq vaqt davomida bug' ustidan nafas olinadi.

### TIMYAN

Quruq yo'talni yengillashtiradigan yana bir tabiiy vosita timyandır. Bu ko'katlar nafaqat yo'tal belgilarini kamaytirishi, balki ularning chastotasini ham pasaytiradi. Timyanni choyga qo'shib ichishingiz mumkin. Yana undan damlama tayyorlashingiz va u bilan tomog'ingizni chayqashingiz ham mumkin.

### DORIVOR GIYOH QAYNATMALARI

Moychechak, salbiya (shalfey), dalachoy, kalendula, malina barglari va yalpiz yallig'lanishga qarshi, ekspektoran, mukolitik va antiseptik ta'sirga ega. Ulardan damlama tayyorlash uchun o't ustiga qaynoq suv quyiladi, 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Keyin kichik idishga quyiladi. Idishdan chiqayotgan bug'dan 10-15 daqiqa davomida nafas oling. Dorivor damlamani choynakka quyib, jo'mragiga qog'oz qo'yib nafas olsangiz ham bo'ladi.

**G. XODJAMURATOVA** tayyorladi.



– Biz birgalashib bu mashg‘ulotni muvaffaqiyatli tugata olamiz. Chunki biz haqiqiy Vatan himoyachilarimiz...

Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxsiy tarkibni ana shunday dolda beruvchi so‘zlar bilan ruhlantirayotgan guruh komandirining otalarcha muomalasidan askarlarning harakatlarida yanada shaxdamlik uyg‘ondi. O‘quv mashg‘uloti davomida har bir muddatli harbiy xizmatchi o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarini amalda belgilangan me‘yorda bajarardi.

Guruh komandiri II darajali serjant Otabek Atajanovning ish uslubini kuzata turib, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy jarayon ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Bejiz armiyani katta hayot bo‘lag‘asidagi saboq maktabi deb aytishmaydi. Farzand balog‘at yoshiga yetgunga qadar ota-onasi, yaqinlari va atrofdagilardan muayyan hayot tajribasini o‘rganadi, tarbiya oladi. Armiyada o‘tkazgan qisqa muddatli davrdagi tajribasi esa oilada olingan tarbiyani yanada mustahkamlaydi va boyitadi. Egniga harbiy libos kiyib, yurt tinchligini qo‘riqlashga bel bog‘lagan har qanday inson borki, Vatan oldidagi muqaddas burchini ezgu ishlari bilan ado etishga intiladi. Shu jumladan muddatli harbiy xizmatchilar ham. Xizmat davri davomida komandirlarining o‘g‘itlari, harbiycha buyruqlari, belgilangan kun tartibi – barcha-barchasi ularning kelgusi hayotida qimmatli tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Inson jamiyatda yashashi, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun zarur xususiyatlarga ega bo‘lishida

# ASKARLARNING USTOZI



tarbiyaning ahamiyati juda muhim. Chunki atrofdagilar har bir insonni uning amalga oshirgan ishlari bilan baholaydi, ta‘rif beradi. “Chirchiq” umumqo‘shin dala-o‘quv maydonidagi mashg‘ulotlarda toblanayotgan yigitlarning kelgusi hayotida qaysi kasbni egallashidan qat‘i nazar guruh komandiri II darajali serjant Otabek Atajanovning tajribasidan foydalanishi aniq. Maktabda o‘qib yurgan kezarlaridan hayotini harbiy xizmatga, Vatanni qo‘riqlashdek muqaddas burchga baxshida etishga ahd qilgan Otabek oilada yolg‘iz o‘g‘il bo‘lishiga qaramay, ahddidan qaytmadi. Egniga harbiy libos kiyganiga 20 yildan oshibdi, ezgu ishlarni amalga oshirishdan tinmaydi. Uzoq yillardan buyon Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida xizmat burchini o‘tab kelmoqda.

– Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida har yili yuzlab yigitlar muddatli harbiy xizmat burchini o‘taydi. Har safar o‘nlab yigitlar Otabek Atajanov singari tajribali serjantlarimiz komandiriligida orttirgan tajribasi bilan katta hayotga qadam tashlaydi. Yaqinda ta‘lim maskanimizning 105 yilligi nishonlandi va bayram tantanalarida ikki nafar muddatli harbiy xizmatchi bilim yurti faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi. Bu guruh

komandiri II darajali serjant Otabek Atajanov faoliyati misolida milliy armiyamizda, Mudofaa vazirligida tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolatdir, – deydi bilim yurti boshlig‘ining tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari podpolkovnik Baxtiyor Pardayev.

– Xizmat burchimni o‘tash davrida guruh komandirimdan ko‘p hayotiy tajribalarni o‘rgandim. Komandirimning men kabi har bir muddatli harbiy xizmatchiga o‘z farzandidek muomala qilishi e‘tiborga molik. Qisqasi u bizning armiyadagi ustozimiz. II darajali serjant Otabek Atajanov va boshqa ustozlardan olgan bilimlarimiz xizmat yakunida beriladigan imtiyozlar uchun qo‘l kelishi aniq. Hozirga qadar bir necha marta bilim yurti boshlig‘ining faxriy yorlig‘i va tashakkurnomalari bilan taqdirlandim, – deydi qashqadaryolik oddiy askar Asilbek Hoshimov.

III darajali “Namunali xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni sohibi II darajali serjant Otabek Atajanov harbiy xizmatchi sifatida ota-onasining solih farzandi bo‘la oldi. Shuning uchun ham u o‘z qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibga ota-onalarcha muomala qiladi. Buning natijasida Asilbek Hoshimovga o‘xshagan o‘nlab yoshlarning armiyada orttirgan tajribasi katta hayotda bir umrga saboq maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Asror RO‘ZIBOYEV

## ✓ CHEGARA QO‘SHINLARIDA

# YUKSAK G‘URUR VA SADOQAT TIMSOLI

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiy qism va bo‘linmalari tomonidan muntazam ravishda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik hamda yuksak ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilib, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar davomida ertamiz egalarini milliy o‘zligimizni chuqur anglagan holda, tarixiy an‘analarimizga sadoqatli, barkamol avlod bo‘lib ulg‘ayishlariga muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

kasb tanlash borasidagi qiziqishlarim qatoriga harbiylik sohasi ham qo‘shildi, – deydi o‘quvchilardan biri Dilshodbek Saidov.

O‘tib kelayotgan yosh avlodning vatanparvarlik hissini oshirishga qaratilgan tadbirlardan yana



Ana shunday tadbir Toshkent viloyati Bekobod shahrida joylashgan harbiy qismlardan birida bo‘lib o‘tdi. Hududdagi umumta‘lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etgan mazkur uchrashuv davomida yoshlar harbiy qism hayoti bilan tanishish barobarida, mavjud qurol-aslaha va harbiy texnikalarning ko‘rgazmasiga ham guvoh bo‘lib, ularning taktik-texnik tavsifi hamda qo‘llanilishiga oid ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar.

– 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 32 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini “Yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir!” shiori ostida tashkil etilishi belgilab berildi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning so‘nggi yillarda milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, qo‘shinlar jangovar qudratini yanada yuksaltirishga

qaratilayotgan katta e‘tibor bilan birga, yurt himoyachilari mamlakatning g‘urur va iftixor ramzi ekanini anglashlari uchun ham katta imkon yaratadi. Bugungi tadbir davomida o‘quvchilar sohaga oid ko‘plab ma‘lumotlar bilan qiziqib, o‘zlarining ilk harbiy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga erishishdi. Ayniqsa, qizlarning faolligi, qiziquvchanligi kishini juda quvontiradi, – deydi podpolkovnik Baxtiyor Omonov.

Ochiq osmon ostida o‘tkazilgan suhbat davomida yoshlarning fikr-mulohazalari hamda kelgusidagi orzu-maqсадlari ham tinglanib, ularga zarur taklif va tavsiyalar berildi.

– Men yaqinda 9-sinfni tamomlayman. Bugungi suhbat davomida harbiy akalarimiz Termiz shahridagi “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi faoliyati va unga kirish tartibi to‘g‘risida tushuntirib berishdi. Bu men uchun juda kerakli ma‘lumot bo‘ldi. Endilikda

biri Jizzax shahridagi Olimpiya zaxiralari kolleji o‘quvchilari uchun ham tashkil etildi. Mazkur ta‘lim dargohida bo‘lib o‘tgan harbiylar va yoshlar uchrashuvi davomida o‘z Vatani, tug‘ilib-o‘sgan yurtini himoya qilish har bir er yigitning burchi ekani ta‘kidlab o‘tili. Mazkur maskanda ham zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalarning imkoniyatlari xususida yoshlarni qiziqtirgan ko‘plab savollarga harbiylar tomonidan javob berildi.

Kelajagimiz bunyodkorlari ishtirokida o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar, milliy armiyamiz nufuzini yanada yuksaltirishi bilan birga, uning saflarida xizmat qilish katta sharaf ekanini anglatishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mayor  
 Farida BOBOJONOVA  
 DXX Chegara qo‘shinlari



## INNOVATSION “SKALODROM” UNIVERSAL MAJMUASI

Innovatsion g'oyalar asosida, chet el tajribalaridan kam bo'lmagan holda, g'oyalar yaratish va ular asosida ishlarni amalga oshirish bo'yicha Qurolli Kuchlar akademiyasining ishchi guruhi tomonidan harbiy xizmatchilarning ruhiy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida umumiy 21 metr balandlikka ega bo'lgan tog'-balandlik kombinatsiyalashtirilgan "Skalodrom" universal majmuasi barpo etilganidan xabaringiz bor.



Jahon standartlariga javob beradigan ushbu universal majmua modelini barpo etishdan asosiy maqsad, rivojlangan davlatlarning tog' balandlik tayyorgarligidagi ilg'or tajribalarini o'rganib, bir joyning o'zida bir nechta o'quv savol va masalalarni ko'rib chiqish va ularni yechimini topish, shu bilan birga, shaxsiy tarkibga tog' va shahar sharoitlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishning oqilona usullarini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlarda keng foydalanishdan iborat.

Bundan tashqari, "Skalodrom" universal majmuasidan foydalanish orqali biz shaxsiy tarkibni mashg'ulotlarga (*poligonlarga*) borib kelishi uchun sarflanadigan vaqt, shaxsiy tarkibni tog'da vertolyotlar qo'na olmaydigan joylardan evakuatsiya qilish hamda mavjud o'quv nuqtalarini qurish uchun sarflanadigan xarajatlarni tejalishiga erishamiz.

Hozirgi kunda "Skalodrom" universal majmuasida uning imkoniyatlarini to'liq yoritib ko'rsatish maqsadida akademiya kursantlari, xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko'rgan va sovrinli o'rinlarni egallagan harbiy xizmatchilar, shu bilan birga, "Tog' jangchisi" to'garagi shaxsiy tarkibi muntazam ravishda shug'ullanib kelmoqda.

Polkovnik Radislav MAVLYUTOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi texnik  
ta'minot kafedrasini boshlig'i o'rinbosari

## HARBIY ILMIY TADQIQOTCHILAR MUVAFFAQIYATI

"MDH yetakchilari" xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida Qurolli Kuchlar akademiyasi mutaxassislari taqdirlandi.



"Scientific publication" ilmiy matbuot markazi tomonidan Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, doktorantlar, magistrlar, talabalar, oliy harbiy ta'lim muassasalari, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va barcha ilmiy izlanuvchilar ishtirokida "MDH yetakchilari" xalqaro ilmiy-amaliy tanlovi hamda "Ilmiy tadqiqotning vazifalari: muammosi va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Tanlov jarayonida 800 ga yaqin ilmiy izlanuvchilarning ilmiy maqolalari qabul qilinib, olimlar kengashi tomonidan g'oliblikka nomzodlar saralab olindi.

Mazkur tanlov g'oliblari orasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrining ham borligi quvonarli hol.

Tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan ilmiy izlanuvchilar sertifikat, medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Polkovnik Farhod NARGITOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi kafedra boshlig'i

### MUDOAFAA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA



O'z poyoniga yetayotgan 2023-yilda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ham muayyan natijalarga erishildi. Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi mazkur tuman o'quv sport-texnika klubi tomonidan amalga oshirilgan ishlar shular jumlasidandir.

– Yakunlanayotgan 2023-yilda ham tashkilotimiz tuman mudofaa ishlari, xalq ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va marifat markazining tuman bo'limlari bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik targ'ibotlarini faol olib bordik, – deydi O'STK boshlig'i Faxriddin Umirov. – Bizga bu borada tashkilotimizning 32 yilligini ko'tarinki ruhda o'tkazishga bag'ishlangan tadbirlar rejasi dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Jumladan, ushbu muhim sanaga bag'ishlangan "Vatanparvar –

## KLUBDA YOSHLAR UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATILDI



"Vatanparvar" tashkiloti Chiroqchi tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi yurtimiz ahlini kirib kelayotgan yangi 2024-yil bilan qizg'in muborakbod etadi.

Yangi yil barchangizga oilaviy tinchlik, xotirjamlik, sihat-salomatlik, baxt va omad olib kelsin. Yangi yilingiz muborak bo'lsin, aziz yurtdoshlar!

mening tanlovim!", "Vatanparvar" tashkiloti oyligi, "Vatanparvar" tashkiloti – mening taqdirimda" kabi mavzularda turli ma'naviy va sport tadbirlari o'tkazildi.

Klub xodimlari tomonidan tuman yoshlarini ma'nan yetuk shaxslar sifatida kamol topishlariga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shu kunlarda O'STKda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting" va "Duatlon" kabi seksiya va to'garaklarga 50 nafarga yaqin yosh jalb etilgan. Sportchi yoshlar o'z navbatida nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishdi.

Ta'kidlash joizki, mazkur o'quv sport-texnika klubida ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash borasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Belgilangan reja asosida 400 nafardan ziyod "B", "BC" hamda "C" toifali haydovchi tayyorlandi. Shuningdek, "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun ham imtiyoz asosida o'quv kurslari tashkil etildi. Muhimi, ushbu yilda ham tinglovchilarning hayotda kerak bo'ladigan kasb-hunarlarni puxta egallab olishlari uchun klubda keng imkoniyatlar yaratildi. Ayni kunlarda ham bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.



# Har bir askar bir qalqon

## QUROLI KUCHLARIMIZ

Armiyamiz xalq bilan  
bir jon-u bir tan bo'lib,  
G'animlarning hiylasin  
kuydirar gulxan bo'lib.  
Yangi zafarlar sari  
qadam tashlar mardona,  
Har bir askar bir qalqon,  
har biri Vatan bo'lib.

Qutlug' yoshdadir bugun  
Qurolli Kuchlarimiz.  
Xizmatdadir tun-u kun  
Qurolli Kuchlarimiz.  
Safarida mardona  
Temurbek avlodlari,  
Kurashgay tinchlik uchun  
Qurolli Kuchlarimiz!

Ko'ngil berib yurt ishqini  
degan mehriyoga,  
To'ldirib yuraklarin  
ma'rifatga, ziyoga.  
Safardagi o'tyurak  
shepanja o'g'lonlari  
Jangovar shayligini  
ko'rsatdi keng dunyoga,

Goh suvda suzar ular,  
goh esa ko'kda uchar,  
Yurtim degan botirlar  
hamisha zafar quchar.  
O'g'lonlari ichgan ont,  
yurgan yo'ldan qaytmas,  
Kerak bo'lsa bu yo'lda  
hatto jonidan kechar.  
Qutlug' yoshdadir bugun  
Qurolli Kuchlarimiz.  
Xizmatdadir tun-u kun  
Qurolli Kuchlarimiz.  
Safarida mardona  
Temurbek avlodlari,  
Kurashgay tinchlik uchun  
Qurolli Kuchlarimiz!

## HARBIYLIK

Harbiylik – oromdan kechmoqlik erur,  
Ne-ne mashaqqatlar chekmoqlik erur.  
Jonajon elim deb yashab bir umr,  
Yurt uchun o't-olov kechmoqlik erur.

Harbiylar, harbiylar, jasur harbiylar,  
Safarda mardona, mag'rur harbiylar.  
Goh yerda, goh suvda, goh samo kezib,  
Dunyoda tinchlikka mas'ul harbiylar.

Yasharsiz hamisha sergak va hushyor,  
Ajdodlar ruhiga sadoqat bilan.  
Shioringiz – doim kurashmoq erur,  
Jaholatga qarshi ma'rifat bilan.

Kundan kun oshgaydir mahoratingiz,  
Jangovar shaylig-u matonatingiz.  
Erkin, yosh avlodlarga ibrat mudom,  
Muqaddas Vatanga sadoqatingiz.

Siz borsizki, tinchdir hur O'zbekiston,  
Go'yo har biringiz bitta Vatansiz.  
Ezgulik qal'asin saqlash-chun omon,  
Jonajon xalq bilan bir jon-u tansiz.

Harbiylar, harbiylar, jasur harbiylar,  
Safarda mardona, mag'rur harbiylar.  
Bor bo'ling hamisha zafarlar quchib,  
Dunyoda tinchlikka mas'ul harbiylar!

## ASKAR ONALARIGA TA'ZIM

Bir umr dilbandin dardida yongan,  
Qalbi bamisoli daryoyi azim.  
O'g'lim askar bo'ldi, deya quvongan –  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Siz – ona To'maris, Bibixonimsiz,  
Mag'rur momolardan meros shonimsiz,  
Simob kabi qalqib turgan jonimsiz,  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Bo'lsin deb farzandim doim sog'-omon,  
Joningiz hovuchlab yasharsiz har on,  
Ey, g'am-u tashvishga qalblari qalqon –  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Qalbingiz sog'inchda  
yonganda bir zum –  
Yulduzli samoga tashlarsiz razm.  
O'g'lingiz yuziga ingay tabassum,  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Tinchlik qo'rg'oniga bo'lib zo'r qalqon,  
O'g'lingiz Vatanni asragay har on,  
Baxtimizga doim bo'ling sog'-omon,  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Bezovta bu dunyo tinch-omon bo'lsin,  
O'g'lonlaringiz mard, qahramon bo'lsin,  
Sizga olqish bo'lsin, sharaf-shon bo'lsin,  
Askar onalari, sizga ming ta'zim!

Iste'fodagi polkovnik  
Zikrilla NE'MAT

## MARDLAR QO'SHIG'I

Sizni bugun etay tarannum,  
Sha'ningizni sharaflab har zum,  
Ezgu ishga burchlidir qalbm,  
Olamda bearmon mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Yoshlikdanoq soz niyat qilib,  
Posbonlikni chin sharaf bilib,  
Yetishdingiz baxtga, intilib,  
Toza sha'ni shoyon mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Amir Temur bobodan saboq,  
Jaloliddin ibratdir har chog',  
Tunlarda ham sarhadda uyg'oq,  
Bedorlikka mezon mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Matonatda mumtoz, betakror,  
Qoyadagi burgut, uchqur sor,  
Eli uchun o'ktam, fidokor,  
G'ururdan to osmon mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Farzandlar ham siz bilan masrur,  
Jajji qalbdan bir olam g'urur,  
Vatan ishqini aslo so'nmas nur,  
Ephil, hushyor, posbon mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Qasamyodga sodiqsiz mudom,  
Madhingizga sayladim kalom,  
Har satrimda cheksiz ehtirom,  
Dovruqlari doston mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Yurtboshimning ishonchin oqlab,  
Yerda, suvda tinchlikni yoqlab,  
Kasbingizning shonin ardoqlab,  
Yashayotgan komron mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim.

Tinch bo'lsinlar zamin-u zamon,  
Osoyishta gullasin bo'ston,  
Ahd butun bir tan-u bir jon,  
O't yurakli o'g'lon – mardlarim,  
Vatan uchun qalqon mardlarim!

## SAFDOSHIM

Yovga tik boq, safdoshim,  
yovga tik boq,  
Qilich keskir bo'lsin,  
shafqat bilma hech.  
G'animga yor emas bu ona tuproq,  
Vatan de, Vatan de,  
zahmat bilma hech!

Yovga tik boq, safdoshim,  
yovga tik boq,  
Sher shiddati misol  
arslon panja bo'l.  
Yonib tursin sendagi yovqur nigoh,  
Sirtlon sifat erlarga iskanja bo'l.

Yovga tik boq, safdoshim,  
yovga tik boq,  
Bu Vatan doimo mardlarga muhtoj.  
G'afatda qolmagin,  
bo'l mudom ogoh,  
Asli ichingdagi g'animlardan qoch.

Vatan omon bo'lar –  
safar mustahkam,  
Yigitlar bor bo'lsa yelka tutarli.  
So'zingni, o'zingni,  
safni qil mahkam,  
Bir xalqni buzmoqqa,  
safni buzmoqqa  
Qo'rloqlar va bitta xoin yetarli!

Do'sti bo'l eliga hissa qo'shganni,  
Ona yurt deganda mehri jo'shganni.  
Tashingdagi yovni yengishdan avval  
Yanchib tashla  
ichingdagi dushmani!

Shahboz CHORSHANBIYEV



Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qiziqishini oshirish, qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish orqali milliy g'oya va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy armiyamiz qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni yanada kuchaytirish maqsadida Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismda uch avlod uchrashuvi o'tkazildi.

# FAXRIIYLAR SABOG'I



Unda O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, senator, O'zbekiston Qahramoni, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari Sodiqjon Turdiyev hamda kengashning Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi, Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha kengash a'zolari hamda o'quvchilar ishtirok etdi.

Yoshlar harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar, jumladan, o'quv xonalari va ma'naviyat markazi bilan yaqindan tanishdi. Harbiy

xizmatchilarning jangovar tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarini kuzatdi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining tashrifi doirasida harbiy xizmatchilar bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Tadbirda so'zga chiqqanlar Qurolli Kuchlar tizimida uzoq vaqt xizmat qilgan, bugungi kunda yoshlarga har tomonlama namuna ko'rsatib kelayotgan faxriylar hamda nuroni otaxonlarimizning hayot yo'li va ularning ko'rsatgan jasorati haqida yosh avlod vakillariga hayotiy misollar bilan so'zlab berdi. Umumta'lim

maktablarining yuqori sinf o'quvchilari harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylarining so'zlarini jon quloqlari bilan tingladi. Vatan himoyasining mas'uliyati va sharafini rasman his qilayotgan yigitlar, kelgusida o'zlarini ularning o'rinda tasavvur qilayotgan o'g'il-qizlar uchun bir necha o'n yillik tajriba, hayotiy voqealarga asoslangan o'g'itlar juda ham qiziqarli edi. Hayotiy nasihatlar, tajribalar yoshlar qalbidan joy olishi, o'qib-izlanishlarida asqatishiga shubha yo'q.

Suhbat yakunida harbiy xizmatda yuksak natijalarga erishgan, namunali harbiy xizmatchi va faxriylarga "Nuroni" jamg'armasi tomonidan qimmatbaho sovg'alar, harbiy qism kutubxonasiga badiiy va ilmiy adabiyotlar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining harbiy qism va muassasalarda uyushtirayotgan bu kabi tashriflari armiya va xalq birdamligining yaqqol ko'rinishi ekanligi bilan ahamiyatlidir.


Sherzod EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"



@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**

<p><b>VATANPARVAR</b></p> <p>MUASSIS</p>  <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p>www.mudofaa.uz</p>	<p><b>Tahririyat kengashi:</b> general-mayor Hamdam Qarshiyev polkovnik Otabek Yuldashev polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov</p> <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> podpolkovnik Ahror Ochilov</p> <p>ISSN 2010-5541</p> <p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.</p> <p><b>Telefonlar:</b> kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29</p>	<p><b>Navbatchi:</b> kapitan Aziz Norqulov <b>Sahifalovchi:</b> Nodirabegim Ne'matova <b>Musahhih:</b> Zebo Sariyeva</p> <p>Buyurtma: V-5666 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 30 126 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.</p>	<p>Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.</p> <p>Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda.</p> <p>"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.</p> <p>1 2 3 4 5 6</p> <p>Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.</p>
	<p>t.me/mv_vatanparvar_uz t.me/mudofaavazirligi</p>	<p>www.mv-vatanparvar.uz www.mudofaa.uz</p>	<p>mudofaavazirligi</p>	<p>mudofaavazirligi</p>